

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

“Himoyaga tavsiya  
etilsin”

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_ S.Abdullayev

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2018-y

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish ta'lif yo'nalishi IV kurs 401-guruh  
talabasi Bo'stonova Dilshodaning “**Tavallo she'riyatida ijtimoiy  
voqelikning badiiy ifodasi**” mavzusida yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ f.f.d., prof. N.Jabborov,

O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik  
kafedrasi mudiri

**Taqrizchi:**

\_\_\_\_\_ f.f.n.

A.Nurmatov,  
O'zbekiston Davlat Jahon tillar  
universiteti, Xalqaro  
Jurnalistik  
nazariyasi va amaliyoti  
kafedrasi  
mudiri, filologiya  
fanlari  
nomzodi, dotsent

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik  
kafedrasi mudiri

\_\_\_\_\_ f.f.d. prof. N.Jabborov

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2018-y

**TOSHKENT-2018**

## **MUNDARIJA**

### **Kirish.....**

#### **I bob. “Ravnaq ul-islom” to‘plamida Vatan va millat mavzuining badiiy ifodasi.**

- 1.1. “Ravnaq ul-islom”da Vatanga muhabbat tuyg‘usining yoritilishi.....
- 1.2. Millat va milliyat masalalari talqini.....

#### **II bob. Tavollo she'riyatida Turkistonni taraqqiyotdan ortda qoldirayotgan illatlar tanqidi**

- 2.1. Shoir nazmida Yevropa va Turkiston qiyosi.....
- 2.2. Zamon voqealariga munosabatning she'riyatdagi ifodasi.....

### **Xulosa.....**

### **Foydalilanilgan adabiyotlar.....**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** Ijodkor va ijtimoiy muhitning bir-biriga o‘zaro ta’siri masalasi muhim ahamiyatga ega. Negaki, ijodkor ma'lum bir tarixiy-ijtimoiy sharoitda yashaydi va bu tarixiy-ijtimoiy sharoit ijodkorga ta'sir etmay qolmaydi. Chunki tarixiy voqelik, ijtimoiy muhit tashqi yoki ichki ta'sirlar orqali o‘zgarib boradi. Bu muhitda ba'zan rivojlanish, o‘sish jarayonlari kechsa, ayrim hollarda esa aksincha, tanazzul, taraqqiyotdan ortda qolish holatlari kuzatilishi mumkin. Ana shu murakkab jarayon jamiyatning boshqa a'zolaridan ko‘ra faolroq, kuzatuvchanroq, ta'sirchanroq bo‘lgan ijodkor ongida, ruhiyatida o‘z aksini qoldiradi. Asarlarining yaratilishi jarayonida o‘z ifodasini topadi. O‘z navbatida, jamiyatning ilg‘or qatlami vakili hisoblangan ijodkor tarixiy voqelikka, ijtimoiy muhitga ta'sir ko‘rsatishi, tarixiy hodisalar oqimining o‘zgarishiga sabab bo‘lishi ham mumkin. O‘zbek jadid adabiyoti xuddi shunday tarixiy-ijtimoiy sharoitda rivojlangani ma'lum. Shuning uchun jadid adabiyoti namoyandalari adabiy merosini o‘rganishda ijodkor va tarixiy jarayon, ijodkor va ijtimoiy muhit masalalarini e'tiborda tutish zarur bo‘ladi. Jadid adabiyotining yetuk namoyandasini bo‘lgan, o‘z davri va undan keyingi davr ijodkorlari ruhiyatiga kuchli ta'sir ko‘rsata olgan shoir To‘lagan Xo‘jamyorov Tavallo she'riyati ana shu jihatdan adabiyotshunoslik uchun boy material beradi.

Tavallo she'riyatga yangicha qarashlar asosida yondashdi. Uning she'rlerida “...vazn va ohang an'anaviy-aruzda. Biroq mazmun tamom yangi. Turkistonni qoplagan jaholat va nodonlik, tutqunlik va turg‘unlik haqida. Uning ham boshqa rivojlangan, taraqqiy topgan millatlar qatorida farovon va baxtli yashashga bo‘lgan haqqi-huquqi to‘g‘risida”<sup>1</sup>

. Shuning uchun ham Tavallo she'riyati millat ongu shuuriga kuchli ta'sir ko‘rsatgan. Shoир ijodida xalqimizning dardu iztiroblari, orzu-armonlari, o‘sha davrda kechgan eng muhim hodisalar betakror badiiy talqin etilgan. Tavalloning

<sup>1</sup> Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. Т.: “Маънавият”, 2004

ana shunday asarlari yaratilishi tarixini, shoir she'riyati va o'sha davr ijtimoiy-siyosiy jarayonining o'zaro ta'siri masalalarini o'rganish milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti haqidagi majud tasavvurlarni boyitishi mumkin. Tavallo she'riyatida ijtimoiy voqelikning badiiy talqini masalasini o'rganish, shu jihatdan, muhimdir. Bu esa, o'z navbatida, ushbu bitiruv malakaviy ishimizning dolzarb muammoni o'rganishga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darjasи.** To'lagan Xo'jamyorov Tavallo she'riyatining o'rganilishi o'zi hayotligi davridayoq boshlangan edi. Shoirning "Ravnaq ul-islom" to'plami 1916 yiliyoq chop etilib, qo'lma-qo'l o'qilgan. Professor Begali Qosimovning yozishicha, 1937-38 yillarda Germaniyadagi Bamberg universiteti turkologiya bo'limida Tavalloning "Ravnaq ul-islom" to'plami bo'yicha ixtisoslik kursi o'qilgani ma'lum<sup>2</sup>.

1968 yili adabiyotshunos Muhsin Zokiriy va atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinov tashabbusi bilan dunyoga kelgan va zararli kitob sifatida darhol yig'ishtirib olingan "Tirik satrlar" to'plamida shoir ijodidan namunalar berilgani shoir adabiy merosining mamlakatimizda o'rganilishini boshlab berdi.

Shundan keyin yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgunga qadar Tavallo ijodi o'rganilmay keldi. 1993 yili professor Begali Qosimov shoirning "Ravnaq ul-islom" she'riy to'plamini so'zboshi bilan alohida chop ettirdi<sup>3</sup>.

2002 yili professor Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" monografiyasida shoir hayoti va ijodi birinchi marta alohida tadqiq qilindi<sup>4</sup>.

Tavallo adabiy merosining oliy ta'lim dasturlari va darsliklariga kiritilishida ham atoqli jadidshunos Begali Qosimovning xizmatlari katta bo'ldi. 1996 yili nashrdan chiqqan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotidan

<sup>2</sup> Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. Т.: "Маънавият", 2004, 313-бет.

<sup>3</sup> Тавалло. Равнақ ул-ислом (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Б. Қосимов). - Т.: "Фан" нашриёти, 1993

<sup>4</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: "Маънавият", 2002, 307-315-бетлар

dastur”da Tavallo ijodining alohida o‘rganilishi ko‘zda tutildi<sup>5</sup>. 2004 yili chop etilgan oliy o‘quv yurtlari uchun “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligi<sup>6</sup>da Tavalloning tarjimai holi, shoir she’riyatining adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rni, mavzulari qamrovi, badiiyatiga doir fikrlar o‘rin olgan.

Professor Nurboy Jabborovning “Mohiyat” gazetasi 2004 yil 7 may sonida chop etilgan “Millata jonlar fido...” maqolasida Tavallo publitsistikasining mavzu ko‘lami, zamonamiz uchun ahamiyati masalalariga e’tibor qaratilgan<sup>7</sup>.

2004 yili “O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotiga materiallar” to‘plamida Tavalloning publitsistik maqolalari chop etildi<sup>8</sup>.

Professor Naim Karimovning “XX asr adabiyoti manzaralari” kitobida Tavallo biografiyasи va she’riyati haqidagi yangi kuzatishlar bayon qilingan<sup>9</sup>.

Atoqli jadidshunos Begali Qosimovning “Uyg‘ongan millat ma’rifati” kitobida “Ikki taqdir: Tavallo va Hoji Muin” sarlavhasi ostida shoir va uning zamondoshi Hoji Muinning millat saodati yo‘lidagi ijodiy faoliyati, bu ikki ijodkor qismatidagi yaqinlik masalalari tahlil etilgan<sup>10</sup>.

2013 yili Tavallo she’rlari va publitsistik maqolalari “Millata jonlar fido...” nomi bilan qayta nashr etildi. To‘plam she’rlar professor Begali Qosimov 1993 yili chop ettirgan “Ravnaq ul-islom” to‘plamidan, publitsistik maqolalari esa Ulug‘bek Dolimov va Nurboy Jabborov tomonidan nashrga tayyorlanib, “O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotiga materiallar” (2004) to‘plamiga kirgan maqollardan olingan. Afsuslanarli jihat, ilmiy etikaga zid ravishda to‘plamning biror o‘rnida bu olimlarning xizmatlari hatto eslanmagan<sup>11</sup>.

<sup>5</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётидан дастур (Тузувчилар: Б. Қосимов, Ш.Юсупов ва б.). - Т., 1996

<sup>6</sup> Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслек. Т.: “Маънавият”, 2004, 310-320-бетлар.

<sup>7</sup> Жабборов Н. “Миллата жонлар фидо...”. // Моҳият, 2004 йил 7 май

<sup>8</sup> Ўзбек миллий уйғониш адабиётига материаллар (Нашрга тайёрловчилар: Б.Қосимов, У.Долимов, Н.Жабборов). - Т.: “Университет”, 2004

<sup>9</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. -Т.: “Ўзбекистон”, 2008, 85-94-бетлар.

<sup>10</sup> Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. - Т.: “Маънавият”, 2011

<sup>11</sup> Тавалло. Миллата жонлар фидо. - Т.: “Адабиёт учкунлари”, 2013

Ustoz olimlarning yuqorida zikr etilgan tadqiqotlarida Tavallo she'riyatida davr ijtimoiy voqeligining badiiy talqini masalasi alohida o'rganilgan emas.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Milliy uyg'onish davri Toshkent adabiy muhitining yetuk namoyandasi To'lagan Xo'jamyorov Tavallo she'riyatida ijtimoiy voqelikning badiiy talqini masalasini o'rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadidir.

**Ishning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- ijodkor nazmiy merosidagi she'rlarning mavzu qamrovini o'rganish;
- Tavalloning Vatan mavzuidagi she'rlarini tahlil etish;
- shoir nazmiy asarlarida millat va milliyat masalalarining yoritilishini tadqiq qilish;
- ijodkor she'riyatida Yevropa va Turkiston qiyosiga doir qarashlar ifodasi tahlilini amalga oshirish;
- shoir she'riyatida millatning tanazzuli sabablariga oid qarashlar talqinini o'rganish;
- shoir she'riyatining milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rniغا doir xulosalar berish.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, har biri ikki fashni o'z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. “RAVNAQ UL-ISLOM” TO‘PLAMIDA VATAN VA MILLAT MAVZUINING BADIY IFODASI**

### **1.3. “Ravnaq ul-islom”da Vatanga muhabbat tuyg‘usining yoritilishi**

Shoir Tavallo o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining yorqin siymolaridan. Uning ismi To‘lagan, familiyasi Xo‘jamyorov bo‘lib, XX asr boshlari Toshkent adabiy muhitining yetuk namoyandalaridandir. Shoir o‘sha davrda xalq o‘rtasida she’rlari bilan katta shuhrat qozongani ma’lum.

Professor Begali Qosimovning aniqlashicha, “Bo‘lajak shoir 1883 yilda Ko‘kcha dahasida Obi Nazir mahallasida o‘ziga to‘q Xo‘jamyor Jivanboev oilasida dunyoga keldi. Eski mакtabda savod chiqardi. “Beklarbegi” madrasasida o‘qidi. Eski Jo‘va maydonining kun botarida joylashgan va ur-yiqit yillari to‘s-to‘polonda buzib yuborilgan bu madrasaning o‘z davrida e’tibori baland edi. Ikki qavatli hujralari shimol va janubga qarab tizilib ketgan, old tomondagi tik zinopoyalar tekis, katta sahndan to‘ppa to‘g‘ri gavjum bozorga olib tushuvchi bu maskan o‘tgan asrning 90-yillarida Toshkentdagi qizg‘in adabiy dargohlardan edi. Uning hujralaridan birida Muqimiш va Furqatning yaqin do‘sti, davrning mashhur shoirlaridan Karimbek Sharifbek o‘g‘li Kamiy (1865-1922) faqirona hayot kechirardi. Yana birida Shayx Sa’diyning “Guliston”ini shu yillari o‘zbekchaga o‘girgan Murodxo‘ja domla istiqomat qilardi. Dovruqli shoirlardan Yusuf Saryomiy (1840-1912) har Toshkentga kelganda bu yerga albatta tushar edi. “Kalila va Dimna”ning tarjimoni, o‘zbek, fors, arab tillarida birday ijod qiluvchi qo‘shtutlik zakiy va noziktab’ Qori Fazlulloh Almaiy kunda-shunda edi. Qo‘shni “Ko‘kaldosh” talabalaridan Mulla Qo‘shoq Miskin (1880-1937), Said Haybatulloxo‘ja Xislat (1880-1945), Sirojiddin Sidqiy-Xondayliqiy (1884-1934) tez-tez chiqib turishardi. Mushoaramusohabalarni ko‘pincha madrasaning bosh mudarrisi ulug‘ yoshli “hazrati domla” Shomahmud (1903 yilda vafot etgan) boshqarardi. Bedilxonlikda esa muammoni Toshkentdagi tan olingan yetti bedilxonning biri, “Baroqxon”

madrasasi mudarrisi Alouddin Fununiy (1861-1932) ajrim qilib berardi. “Beklarbegi”dagi bu muhit yosh To‘laganning qalamkash sifatida shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Mol savdosi bilan shug‘ullanadigan Xo‘jamyor akaning Avliyoota, Prjevalsk shaharlari bilan yaqin aloqalari bor edi. 17 yoshli To‘lagan 1900 yilda otasining maslahati bilan Prjevalsk shahriga borib, Usmonbek Solihjonboev degan kishining qo‘lida ish yurituvchi (prikazchik) bo‘lib ishlay boshladи. Tavallo 10-yillarda ham u yoqlarga tez-tez borib turgan. “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914 yil dekabr sonlarida uning shu yil 12 noyabrda savdo ishlari bilan Avliyoota, Olmaota, Yorkand taraflarga safar qilgani, 20 dekabrda To‘qmoqda bo‘lgani haqida xabarlar berilgan”<sup>12</sup>.

1909 yili shoirning otasi vafot etadi. Shu sababli u Toshkentga qaytib, shahar savdo shirkatlaridan birida ish yurituvchilik qila boshlaydi. Zuhra ismli qiz bilan oila qurib, Rahbar, Sanobar degan ikki qiz, Maqsud, Mahmud nomli ikki o‘g‘il ko‘radi. O‘tgan asrning 10-yillaridan vaqtli matbuotda “Tavallo” taxallusi bilan she'r va maqolalari bosila boshlaydi.

Shoir nazmiy merosini o‘rganishda asosiy manba “Ravnaq ul-islom” to‘plamidir. To‘plam hajman uncha katta emas, 70 tacha she'r kiritilgan. Professor Naim Karimovning shoir zamondoshi Salimxon Tillaxonovga tayanib ma'lumot berishicha, XX asr boshida nashr etilgan “Sabzazor” to‘plamidagi aksar she'rlar Tavallo ijodi namunalari bo‘lgan<sup>13</sup>. Nomi o‘sha yillar uchun keng rasm bo‘lgan nomlardan. Turkchilik, islomchilik ruhida.

Shoir, birinchi navbatda, zamon hodisalaridan ilhom va ta'sir oldi. Ko‘pgina she'rlari o‘sha davr ijtimoiy hayotidagi yangiliklar, o‘zgarishlar haqida. Lekin zamon hodisalarini tarixiy voqelik bilan bog‘lab talqin qiladi. Tavallo Vatan mavzuiga alohida e'tibor beradi. Uning she'rlarida “Turon”, “Turkiston” atamalari, tabiiyki ko‘p uchraydi. She'rlaridan biri hatto “Suyukli

<sup>12</sup> Косимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: “Маънавият”, 2002, 307-бет.

<sup>13</sup> Каримов Н. Тавалло ҳакида сўз. - Тавалло. Миллата жонлар фидо. - Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2013, 12-бет.

Vatan haqinda” deb atalgan. Shoir tarix haqida so‘z ochganda, yana bir sharaflı nomni tilga oladi. Bu – Movarounnahr. Jumladan “Suyukli Vatan haqinda” she'ri shunday satrlar bilan boshlanadi:

Movarounnahrdur tarixda bizlarga Vatan,  
Arzig‘ay bizlar sanga xizmatda bo‘lsak, jonu tan

Dastlabki baytning o‘zidanoq Vatanning qadri-qimmati haqida so‘z boradi: “Arzig‘ay bizlar sanga xizmatda bo‘lsak jonu tan” – deb yozar ekan, shoir “Vatan”ga “jonu tan”ni qofiya qiladi. Vatan qadri haqidagi bu ta'rifiy fikr, misrama-misra, baytma-bayt taraqqiy topib boradi:

Ey Vatan, ezgu Vatan, afv ayla, qadring bilmaduk,  
Emdi bilduk, bosh ko‘tarduk, ko‘rki, bizlar uyqudan.

Shoir ushbu she'rida Vatan taqdiri uchun farzandlar mas'ul ekanligini alohida uqdiradi. Lekin ular bu mas'uliyatni zarur darajada ado eta olmayapti. Sababi, ular Vatan xizmatini qilish o‘rniga g‘aflatda yotib, umrlarini zoe o‘tkazmoqda:

Bil, Vatan, hyech bir qachon bir yaxshi xizmat qilmadim,  
Zoe o‘tkazdim bu umrim yotubon g‘aflatda man.

Tavallo har bir masalaga iyomon-e'tiqod bilan yondashadi. Voqelikka, hatto o‘z ishlariga ham islomiy nuqtai nazardan baho beradi. Shuning uchun u Vatanga munosib xizmat qila olmaganligi uchun oxiratda malomatga qolishdan qo‘rqadi. She'rning quyidagi satrlarida ana shu tuyg‘u o‘z ifodasini topgan:

Bilmading qadrimni deb go‘r ichra tanbeh bermagil,  
Qo‘l-oyoqlar bog‘labon bo‘ynumg‘a g‘ul qilma rasan.

Shu boisdan shoir Vatan oldida gunohkor ekanligini tan oladi. Uning oldida gunohidan o‘tishini so‘rab tazarru qiladi:

Kech gunohini Tavalloni Vatan, ezgu Vatan,  
Bildi asling, qildi vasfing bu Vatandandir badan.

Shoir fikricha, Vatan va uning sarhadlari bizning badanimiz kabi tanu jonimizga tutashdir. Vatanga daxl tanga daxldir, jonga daxldir. U shu qadar tan

bilan jonga qo'shilib ketgan. Qolaversa, Vatan o'lik jism emas, jonli tandir. Va u ushbu tuproqda yashovchi har bir vatandosh tanu joniga payvasta bo'lmos'i lozim.

Nima uchun shoir maqta'da Vatandan gunohini kechmoqni so'ramoqda?!

"Matla'da har bir vatan farzandining uning oldidagi burchini belgilab bergen edi. So'ngida uzr so'rayapti. Chunki shoir o'zini unga munosib xizmat qila olmadim, deb hisoblaydi. Uningcha, birinchi vazifa millatni uyg'otmoq edi, – u, inshoollo, uyg'ondi ("uyqudan bosh ko'tardi"). Navbatdagi ish millatni tarbiyalamoq va uni Vatan bog'inining bulbuli maqomiga ko'tarmoq, uni barkamol qilib tarbiyalamoq va yurtning chinakam egasi maqomini olib bermoq edi. "Zag'on" ("qarg'alar")ni xijolatga solib, bog'dan "jo'natish" – mustamlakachilardan xalos bo'lmoq edi. Afsuski, bularni amalga oshirib bo'lmayotir. Shoir uzrining sababi shunda. Lekin u mutlaqo ishonadi: "Bundoqcha kunlar bor ekan" deydigan kunlar, albatta keladi. Bu shoir tasallisining bosh sababidir"<sup>14</sup>.

Tavallo XX asr boshlarida turli ijtimoiy sabablarga ko'ra rivojlanishda to'xtagan, ma'rifatdan uzoqlashgan, fikri va shuuri o'tmaslashgan vatandoshlari taqdiri uchun astoydil kuyunadi. Vatanimiz taqdiridagi o'sha murakkab va ziddiyatli zamonda shunday jonkuyar insonlar, xalqni o'z ortidan yetaklashga intilgan fidoyi kishilar bo'lgani yurtning baxti edi. Ular g'aflat uyqusidagi millatni, mudroq Turkistonni uyg'otish uchun bu dunyoga kelgandek...

"XX asrning 10-yillarida Turkistonning zulmatli tunlarini chaqmoq yanglig' yoritib yuborgan ijodkorlar orasida Tavallo alohida o'rinni egallaydi, – deb yozadi professor Naim Karimov. – U na Cho'lponga, na Fitratga, na Xislatu Miskinga o'xshaydi. U hayotdagi chirkin hodisalar, kishilar ongi va yashash tarzidagi eskirgan tushuncha va odatlar bilan aslo murosa qila olmagan shoir. Uning so'zi – nayza. Uning so'zi – chaqmoq. Uning so'zi – bayroq. U shunday so'zi bilan kimlarningdir g'azabiga uchradi. Ammo hajvsevar omma uning

---

<sup>14</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: "Маънавият", 2002, 313-бет.

hajviy she'rlarini oilaviy davralarda, gap-gashtaklarda sevib o‘qib keldi. Tavalloning “Ravnaq ul-islom” kitobi xalqning eng sevimli kitoblaridan biriga aylanib, uning ko‘zini ochdi. U ma’rifatga chorlovchi she'r va maqolalari bilan ham milliy uyg‘onish davri adabiyotining yetakchi vakillari qatoridan faxriy o‘rnini oldi”<sup>15</sup>.

Tavalloning Vatan haqidagi she'rlari boshqa biror shoir she'rlariga o‘xshamaydi. Uning she'rlarida mavzuga butunlay yangicha yondashiladi, tuyg‘ular oqib keladi, fikrlar o‘zgacha ifodalanadi. Shoir Turkiyaning Qars viloyatida yuz bergen bir zilzila munosabati bilan yozgan she'rida o‘z Vatani nomini Turon deb ataydi. «Qars mamlakatida falokatzada musulmon qardoshlar haqida» deb nomlangan ushbu she'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Ko‘rasiz, Turon eli, Qarsda musulmonlardir,  
Rahm eting holina sizlar, qardrdonlardir...

She'rning keyingi satrlarida shoir bu fikrni yana ta'kidlaydi:

Yordam etmak kuni yetti siza, Turon ahli,  
Bu falokatzadalar, tuhmata qurbanlardir.

Bu she'rni tahlil etar ekan, professor Begali Qosimov mana bunday yozadi: “Turon turkistonlilarga qadim sha'n-shavkatni eslatib turardi, dunyon o‘z mulkiday idora etgan buyuk bobolarning «urho»sini eshittirganday bo‘lardi. Bu ham bir – usul. Ikkinchidan, shoir ularning «qardosh»ligiga urg‘u bermoqda. Bu qardoshlik shunchaki din qardoshligi emas, til qardoshligiga ham ishora bor. U yerda turklar yashaydilar. Ular X asrlarda Sirdaryo bo‘yidan ketib, Kichik Osiyoda vatan qilib qolgan qarindoshlarimizdirlar. Bu ham o‘z-o‘zidan turkiy qavmlarning jahoniy miqyoslarga yoyilganiga ishora qiladi. Rusiya esa, Turkistonni turk dunyosidan imkon qadar uzoqda tutishdan, qardoshlarini tanitmaslik, hyech bo‘lmasa yomonotliq qilishdan juda manfaatdor edi. Uni yetim qo‘ziday ko‘rsatishni istar va olijanob cho‘ponlik da'vosini qilar edi.

---

<sup>15</sup> Каримов Н. Тавалло ҳакида сўз. - Тавалло. Миллата жонлар фидо. - Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2013, 4-бет.

Nihoyat, she'rning yana bir jihatni bor. Rusiya urushga kirgan edi. Birinchi Jahon urushi avjida edi. Turkiya Rusiyaga qarshi urushga qo'shilgan va uning bevosita «dushman»iga aylangan edi. Ko'rinayaptiki, shoirning Vatan mavzuidagi she'rlarida miqyos ham, mazmun ham juda keng”<sup>16</sup>.

Shoir Vatanning tarixdagi ulug'verligini, yuksak sha'ni-sharafini eslatib turuvchi “Turon” atamasini boshqa she'rlarida ham faol qo'llagan. Mana ayrim namunalar:

Deyur astag‘furullo, daf'atan shundog‘mu Turonlig‘...

(”Uyonmaz ersa millat” she'ridan);

Yosh-qari qadrini bil,

Turon elin mehmonidur...

(”Muxammasi Tavallo bar g‘azali Mavlaviy Yusuf Saryomiy” she'ridan).

Ayni paytda, Vatanni «Turkiston» shaklida anglash ham tabiiyki, ko‘p uchraydi:

Bahora do‘ndi Turkiston, ochildi g‘unchalar xandon,

Yuring bog‘larda, ey yoron, bu davronlar g‘animatdur

(«Navro‘zlik haqinda» she'ridan)

Shuncha Turkiston elinda nodon ahli ko‘b vale,

Nosih o‘lmaz ersalar, aqli rasolardin na sud?!

(”Xalqg‘a foydasi tegmaganlar haqinda” she'ridan)

Desam, dunyoda bizdek ortda qolg‘on bormu millatdan,

Bu Turkiston elidin tobmadim iqror, yo‘x, yo‘x, yo‘x.

(”Jahon ayvonida...” she'ridan)

Bu jug‘rofiy atamalar bir-biriga u qadar zid emas. Biri xiyol kengroq, biri torroq, farqi shunda xolos.

Shoir Vatanni o‘zi tug‘ilib o‘sgan Toshkent timsolida ham tasavvur etadi. Vatanning og‘ir ahvolidan iztirob chekkan Tavallo uni muqarrar inqirozdan

<sup>16</sup> Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. Т.: “Маънавият”, 2004, 315-бет

qutqaruvchi yagona kuch ilmu ma'rifat ekanligini alohida ta'kidlaydi. “Bir nido” she'ri shu jihatdan xarakterlidir:

Qil ato, yo Rab, bu Toshkand ahlig‘a ilmu funun,  
Sendin o‘zga hyech bir yo‘qtur, Xudoyo, rahnamun.

Tavallo yagona “rahnamun” – yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lgan Alloh taologa munojot qiladi. Undan Toshkent ahliga ilmu funun ato etishini o‘tinadi. Chunki, shoир fikricha, faqat ilm-fan bilangina Vatan dardiga malham qo‘yish mumkin edi.

Sen agar lutf etmasang bizlar jaholat ostida,  
Ilgari qo‘ymay qadamlar yotamiz holo zabun.

Ilmning ziddi – jaholat. Vatanning tanazzuli ana shu jaholat sababidan. Ilgari qadam tashlash uchun jaholat dardiga malham qo‘yish zarur.

Tavalloning zamondoshi Abdulla Avloniy jaholatning ikki turini ajratib ko‘rsatgan edi: 1) jahli basit; 2) jahli murakkab. “Jahli basit” maraziga (kasaliga) mubtalo bo‘lgan kishilar bir narsani bilmalar, ammo bilmaganlarini iqror va e'tirof qilurlar, – deb yozadi Avloniy. – Shuning uchun buning davosi oson: faqat bilmak va o‘rganmak yo‘lida jahdu jadal qilmak ila bo‘lur”<sup>17</sup>.

Bilmaslik unchalik katta ayb emas, o‘rganishga intilmaslik – ayb. Demak, kishi bir narsani bilmasa-yu buni e'tirof etsa, o‘rganishga sa'yharakat qilsa, jaholat iskanjasidan qutulg‘i mumkin. Shuning uchun ham Avloniy buni “jahli basit” – jaholatning sodda turi deb ta'riflayapti. Xo‘sish, buning aksi bo‘lsachi? Avloniy yozadi: “Jahli murakkab” maraziga mubtalo bo‘lgan kishilar bir narsani bilmal, bilmaganini ham bilmasdan “bilaman”, deb da'vo qilur. Bizda munday kishilarga “o‘zboshimcha”, “o‘zbilarmon” ismini berurlar. Bu dardi bedavoning iloji janobi Haqning lutfu inoyati ila hal o‘lunmasa, tuzalmog‘i mushkul va og‘irdur”<sup>18</sup>.

<sup>17</sup> Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2жилд. - Т.: “Маънавият”, 1998, 73-бет.

<sup>18</sup> Абдулла Авлоний. Ўша асар, 74-бет.

Tavallo Vatan inqirozining bosh sababi bo‘lgan jaholatdan qutqarishni so‘rab Yaratganga iltijo qiladi. She’rning davomida shoir ona yurt – Turkiston ahlini g‘aflatda yotmay, ilm istashga da’vat etadi. Uni junun girdobi chulg‘ab olishidan xavfda ekanini aytadi:

Endi siz, Turkiston ahli, ilm istang, yotmangiz,  
Hibs qilmasdan sizi chulg‘ab bu girdobi junun.

Tavalloning ijodkor sifatida shakllanishida Toshkent adabiy muhitining roli katta bo‘ldi. Unga sayramlik shoir Yusuf Saryomiy ustozlik qildi. Taxallusni ham unga Yusuf Saryomiy bergan. Shoirning 1913 yili Yusuf Saryomiy devoniga yozgan she’riy muqaddimada aytishicha, mazkur taxallus unga chimkentlik ustozi tomonidan berilgan. U bunday yozgan:

...Edim bu sohibi devonga shogird,  
Etardim xizmatini az dilu jon.  
  
Tavallo deb taxallus lutf birlan,  
Janobi istadi menga qo‘yilg‘on.  
  
Eshitgach istadim rixlatini,  
Oqizdim ko‘zlarimdan yosh chandon.  
  
Ajal andin asarlar qoldiribon,  
O‘zin qildi qaro tuproqqa pinhon.  
  
Ochildi ro‘yi birlan bu Tavallo,  
Dedi tarixini “bir g‘uncha devon”.

“Bir g‘uncha devon” so‘zlarida Yusuf Saryomiy vafot etgan 1332 (1913) yil yashiringan bo‘lib, musibatdan qattiq mutaassir bo‘lgan shoir ustozi xotirasi oldidagi burchini o‘tash niyatida shu yili uning devonini nashr etgan.

Agar Tavalloning Yusuf Saryomiy va boshqa shoirlar bilan “Beklarbegi” madrasasida tanishganini e’tiborga olsak, uning she’riyatga bo‘lgan havasi va dastlabki she’riy mashqlari talabalik davrida boshlangani, 1909 yili Toshkentga qaytganidan keyin esa tijorat ishlaridan erkin paytlarida toshkentlik shoirlar

bilan yaqin aloqada yashagani va badiiy ijod bilan muntazam ravishda shug‘ullangani ma'lum bo‘ladi.

Shoirning Vatan mavzuidagi she'rlarida ham ustozi Yusuf Saryomiyning ta'siri seziladi. Tavallo she'riyatining yetakchi xususiyatlaridan bo‘lgan ona yurt ravnaqi uchun ilm-fanga targ‘ib etish g‘oyasi Yusuf Saryomiy g‘azaliga muxammasida quyidagicha ifodalangani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Ilmu fan, bilgil, qorong‘u dil uyini yoritor,  
Ilm otina minsa har kim maqsadig‘a yetor,  
Ba'zilar milyonchiman, deb ilmdan inkor etor,  
Kim bo‘lub mag‘ruri dunyo ahli dilni og‘ritor,  
O‘z zamonini o‘shal Fir'avn ila Homonidir.

Muxammasning quyidagi bandida bulbul va zog‘ obrazlari mumtoz she'riyatdagi singari oshiq va ag‘yor ma'nolarini emas, balki ona Turkiston boshiga tushgan musibat – Chor Rossiyasining mustamlakasi ma'nosini anglatadi:

Ketdi bulbul bog‘ aro, qoldi chamanda zog‘lar,  
Ahli donish ketdi ko‘r, o‘rnig‘a qoldi dardisar,  
Bunlaring qo‘rqunchisi yo‘qdur qiyomatdin magar,  
Naf‘i dunyo deb ribou rishvadin qilmay hazar,  
Holiyokim yeb-icharlar – bori elni qonidur.

Umuman, Tavallo she'riyatida Vatan va uning o‘sha davrdagi og‘ir qismatidan, ona yurtning istibdod iskanjasiga tushganidan iztirob tuyg‘usi yetakchilik qiladi. Turkistonni inqirozdan qutqarish umidi badiiy talqin etiladi. Shoir Vatan taraqqiysi uchun yagona chora – ilm-ma'rifat ekanini alohida ta'kidlaydi. U Vatanining istibdod changalidan qutulishiga, taraqqiyiga erishmog‘iga, “Bundoqcha kunlar bor ekan” deydigan kunlar albatta kelishiga ishonadi.

## **1.2. Millat va milliyat masalalari talqini**

Millat va milliyat masalalari barcha zamonlarda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Lekin XX asr bosqlarida jadidlarimiz bu masalani hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga qo‘ydi. O‘tmishda din birligining timsoli hisoblangan “millat” tushunchasini aynan jadidlar til birligiga tayanuvchi etnik atama sifatida qo‘lladilar. “Milliyat” – milliylik, millatning o‘zligi, qadriyatları, butun borlig‘i demakdir. Ma’rifatparvar jadidlar o‘zlarining she’riy, nasriy va publisistik asarlarida millat va milliyat masalalarini ko‘tarib chiqish orqali millatni o‘zligini anglashga, ma’rifatga da’vat etdilar.

Professor Begali Qosimovning yozishicha: “Millat”, “Milliyat” tushunchalariga Avloniy va Tavallolarga qadar she’riyatimizda bunchalik ko‘p e’tibor berilgan emas edi. Xususan, Tavalloda har bir she’r millat, uning shu kundagi ahvoli, jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, tarixi va taqdiriga kelib bog‘lanadi”<sup>19</sup>.

Shoir she’rlaridan biri “O‘z vijdon-vujudima xitob” deb nomlangan. Muxammas shaklida yozilgan ushbu she’rning har bandi “Chiq ichimdan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang” satri bilan yakunlanadi. Jonga xitob har bandning yakunlovchisi bo‘lganligidan ungacha shoir o‘z vujudining har bir a’zosiga shart qo‘yib chiqadi. Bu shartlar Vatan va Millat manfaati yo‘lidagi xizmatlarga qaratilgandir. Chunonchi, millatga yordamlashmagan, uning og‘irini yengil qilmagan qo‘lning “pul tut”ishga haqqi yo‘q, millat g‘amini yemagan dil “xushnud” bo‘lmasligi kerak. Bu g‘amdan yosh to‘kmagan ko‘zning ochilmagani yaxshi. Millatga suyanchiq bo‘la olmagan aql va fikrning boridan yo‘g‘i. Millat g‘amidan boshqa so‘zni so‘zlaydigan til lol bo‘lgani ma’qulroq va hokazo.

Sakkiz bandlik ushbu muxammasning birinchi va so‘nggi bandlarini keltiramiz:

---

<sup>19</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: “Маънавият”, 2002, 311-бет

Ey qo‘lum, pul tutma hyech, millatga yordamlashmasang,  
Bo‘lma xushnud, ey dilim, millat g‘amin g‘amlashmasang,  
Ravshan o‘lma, ey ko‘zum, yoshing to‘kub namlashmasang,  
Fikrim, ochilma, agar she’ring yozib, xamlashmasang,  
Chiq ichimdan, jonim, ey, san manga hamdamlashmasang...

Deydilar, bas qil, Tavallo, she’rlar manzur emas,  
Millating mahv o‘lsa, parvo qilmayurlar, g‘am yemas,  
Bunlaring sho‘rbo-palov, norin yebon, choy ichsa, bas,  
So‘ngra ikki yelkasiga tepsalar ham indamas,  
Chiq ichimdan, jonim, ey, san manga hamdamlashmasang.

She’r bir qadar mahzun ohangda yakunlanmoqda. Bu – umidsizlik, najotsizlik ohangi. Asorat va zalolat o‘z ishini qilgan. Millat allaqachon, Avloniy aytganidek, tirik murda («madfun zinda»)ga aylangan. Uning qorin qayg‘usidan boshqa qayg‘usi yo‘q. Sha’n-shukuh, or-nomus, o‘zlikdan nishon qolgan emas. Shoir millatining ochiq ko‘zli farzandi sifatida bunday fojiaga chiday olmaydi. She’rni she’r qilgan dard – shu.

Tavallo xalq hayotini ro‘y-rost ko‘rsatishda she’r, shoir zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Chunonchi, “Qalamga xitob” she’rida uning “hasratu anduh”dan, “mehnat”dan yozishini”, “to‘g‘ri yoz”ishini talab qiladi:

To‘g‘ri yozg‘il hasratu anduhu mehnat, ey qalam,  
Ahli vijdon o‘qusa, oqsin ko‘zidin yoshlari.

Uningcha, qalamning vazifasi vijdonni uyg‘otmoqdir. Shoirlik bir umr uyg‘oq vijdon bilan yashamoqdir. Sham misoli o‘zi yonib, atrofni yoritmoqdir. Yo‘q-yo‘q, millat, Vatan hayotidagi har bir tashvishu quvonchdan chaqmoqdek chaqilmoq, momaqaldiroqdek borliqni larzaga solmoqdir...

Bizni elga to‘g‘ri so‘z yoqmas takalluf bo‘lmasa,  
Qil hamisha onlari haqqinda sen maqtoshlar.

Ilm-fansiz nechalar aylab o‘zini “obrazon”,  
Men taraqqiy ayladim, deb ursa lof, xarxoshlar.

Chin shoirning birgina quroli bor. U ham bo‘lsa, haqiqat so‘z. Undan chekinish qalamga ham, vijdonga ham xiyonatdir:

Ko‘r, taraqqiyg‘a qadam qo‘ysang ko‘rolmaz, ey qalam,  
Qobiliyat mahv edar bir necha mone' yoshlar...

Millating qayg‘usi ko‘bdur, yema boshqa qayg‘uni,  
Ey qalam, aylar adam, borma, xudoyi oshlar.

She’riyat – bu kurash. O‘zining omonat farog‘ati emas, millatning nafi, manfaati uchunadolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash.

Bas, shunday ekan:

Kel Tavallo, bo‘l musavvir, ol qalamni qo‘lg‘a san,  
Chek frontlar suvratin, ko‘rsun hama naqqoshlar.

Shoir “haqiqat so‘z”ni, dilband diyori dardlarini aytish bilan kifoyalanmaydi. Uni tuzatishga diqqatni qaratadi:

Kamchilikni nazmu tahriri Tavallo qilmasang,  
Kel bu kun manzur emas, yozma bo‘lak ash'or hyech!

(«Hyech» radifli she'ridan).

Ikkinci bir she’rida esa, o‘zini millatning “otxonasida xizmat et”ishga “millatning shaltog‘i”ni tozalashga safarbar qiladi (“Tomoshabog‘ xususida”).

Bunday hol adabiyotimizda ilgari ko‘rilmagan edi.

Ufadagi “Oliya”da o‘qib kelganligi va yangiparast bo‘lganligi uchun “Mo‘min kofir” laqabini orttirgan, “Beklarbegi”da Tavallo bilan deyarli bir vaqtida 1898-1905 yillarda tahsil ko‘rgan Mo‘minjon Muhammadjonov (1883-1964) Yusuf Saryomiyning Toshkentga kelganida doimo qalandarxonalik she'r muhibi Qosimxonto‘raning uyiga qo‘nganini ma'lum qiladi. Bu uyda samarqandlik Saidahmad Vasliy (1870-1925), xo‘jandlik Toshxo‘ja Asiriy (

1864-1916), toshkentlik Karimbek Karim, Mirahmadxon Miriy (1833-1916), Mulla Qosim Omiliy (1868-1944) va yosh havaskor shoirlardan Xislat bilan Tavallo tez-tez she'r suhbatiga yig'ilib turar edilar. Qosimxonto‘raning o‘zi ham Muztarib (1858-1944) taxallusi bilan g‘azal mashq qilar edi. Goho Yusuf Saryomiy Sayramdan minib kelgan otini shu hovlida qoldirib, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona shaharlaridagi do‘stlarinikiga yo‘l olar ekan.

1905 yil voqealari Turkistonga ham yetib keldi. Mahalliy matbuot izga tushdi. Beshyog‘ochlik Nozimaxonimning “Qonli yakshanba” voqealari ta'sirida yozilgan, ezilgan xalq huquqini himoya qiluvchi she'ri bosilib chiqdi.

10-yillarda Markaziy Rossiyada yuz bergan ocharchilik o‘zbek qalamkashlarining asarlarida aks-sado berdi.

Karimbek Kamiy:

Och qoldilar Ufau g‘arib Orenburg,  
Na parcha non alarda va na bor qatra dug‘.  
Ahli ayol birla cho‘juqlar, yeb sag‘ug‘,  
Tarki hayot qildi desam, so‘z degil, darig‘.  
Boy on, vaqt etsangiz, imdod vaqtidur,  
Vayrona dilni aylangiz, obod vaqtidur, -

deb yozdi. Ulkan Rossiya bag‘ridagi ezilgan millatlar va millatlar ichidagi sinflar o‘rtasida qandaydir hamiyat, hamdardlik va hamkorlik paydo bo‘la boshladi. Lekin hali hayot o‘z oqimida davo etardi.

1913 yilning ikkinchi aprelida mashhur tatar shoiri Abdulla To‘qay 27 yoshida sil kasali bilan vafot etdi. Mash‘um xabar uning olis Turkistondag‘i o‘quvchilarini ham iztirobga soldi. Ikkinci yoqda esa Chor Rossiyasi Turkiston istilosining shonli ellik yilligini nishonlashga katta tayyorgarlikni boshlab yubordi. 4 mayda Toshkentda Yangi shaharning qoq o‘rtasida Turkistonning birinchi general gubernatori Fon Kaufmanning haykali tantanali vaziyatda ochildi.

1914 yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasida To‘qay vafotining bir yilligi munosabati bilan Tavallo yozadi:

“Muhtaram muharrir afandim! Ushbu yozilmish maktubimni muanbar “Sadoyi Turkiston” jaridasina darj etmoqingizni ojizona tamanno qilaman. Bulturgina ko‘zdan g‘oyib o‘lub, butun dunyo yoshlarining ko‘zidan yoshlarni oquzib, totor qarindoshlarimizning bog‘i muddaosida o‘zining bir bulbul ekanligin bildurub ketgan yoshgina shoirlari Abdulla To‘qaevning eng nazokatlik va eng ma’nolik muassir she’rlaridan kamina ham ko‘p bahralar olg‘onlig‘imdan va muhtaram shoir afandining vafotina yil to‘lg‘on sababli va turmushimning bir necha xil yerlari shoir afandining tarjimai holig‘a nihoyatda o‘xshab kelganligidan bir she’rina muvofiq tab’ o‘lmasa ham tazmin etub, shu Turkiston sadosi ila yodlanib qolaman”.

Bu: “Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid, millatim” satri bilan boshlanadigan she’r edi. Umuman, uning so‘nggi davr turk, tatar, ozarbayjon shoirlarining she’rlari bilan ham yaxshi tanish ekanligi bilinadi. Shoir Abdulla To‘qay vafotidan qattiq qayg‘uradi. Yuqoridagi maqolada uning “she’rlaridan ko‘p bahralar olg‘onlig‘i”ni, turmushi ham To‘qayning “tarjimai holiga nihoyatda o‘xshab ketganligi”ni (u ham yetim o‘sgan edi) yozadi. Marhum shoirning maslaku muddaosini, jumladan millat yo‘lida jonini fido etmoqni o‘zi uchun muqaddas burch hisoblaydi. Mana, Abdulla To‘qay she’riga bitilgan tazmin-g‘azalning eng ta’sirli, ahamiyatli misralari:

Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid, millatim,  
San salomat, man farog‘at, illatingdur illatim.

Marhum Abdullo To‘qaydek yosh chog‘imda ketmasam,  
Ojizona shoiring bo‘lmoqg‘v vordur niyyatim...

Ey ko‘zum nuri, belimni quvvati, jonu dilim,  
To tirikman, madh etarman millatim, milliyatim.

San tufayli maqsada yetsam tong ermas, deb umid  
Aylaram xizmat sanga, yo‘q boshqa mashg‘uliyatim.

Qalbu vijdonim mani andin bo‘lakni istamas,  
Gar xayol aylarda sansan, voy, mammuniyatim...

Har zamon yod etsa millat bizni Abdullodek,  
Shul manga iqbolu maqsad, baxtu mas'uliyatim.

Millatim, milliyatim, bir yaxshi xizmat qilmadim,  
Qil sado, boshimg‘a kel, ketsun boshimdin g‘aflatim.

Zamonasining juda ko‘p shoirlari kabi Tavallo she'rlarida ham keng o‘rinni Millat va Vatanga xizmat hissi va shu munosabat bilan o‘z-o‘ziga hisob egallaydi. U bir she'rida “Havolansin, g‘izolansin, biling, bu bir humo, millat!....” deb yozadi. Undagi mantiq shunday: millatning ravnaqi uchun, birinchi navbatda, aql va g‘ayrat kerak. G‘ayrat esa ishtiyoqdan, mehr-muhabbatdan tug‘iladi. Aql va g‘ayrat ishonchni, ishonch harakatni yuzaga keltiradi. Millat unga mansub har bir kishining joni-jahoni, baxti-saodati. Binobarin, humo qushi. U ko‘klarga parvoz etmog‘i lozim. Buning uchun unga ruh kerak, madad kerak.

1913 yilning oxirlarida Abdulla Avloniyning tashabbus va g‘ayrati bilan toshkentlik taraqqiyparvar yoshlarni o‘z atrofiga uyushtirgan “Turon” teatr truppassi tashkil topdi. 1914 yilning 27 fevralida “Kolizey” (keyin Sverdlov konserz zali deb nomlangan edi)da truppaning birinchi spektakli Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari ilk marta namoyish qilindi. Bu kunni mahalliy gazetalar “tarixiy kun” deb yozdi.

Tomosha oldidan Munavvarqori nutq so‘zladi. Xalq uning so‘zlarini olqish va qarsak bilan kutib oldi. Zalda “sartiya” – o‘zbeklardan tashqari “rus, arman, tatar” millatlaridan ham bor edi. 1916 yilda Toshkentga kelgan

sharqshunos A.N.Samoylovich “Kolizey”ga tushib mahalliy spektakllarni ko‘rar ekan, “Turkistonga yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi”, - deb yozdi. O‘zbek teatrining maydonga kelishi chindan ham Turkistonagi taraqqiychilikning eng muhim belgilaridan edi. Teatr uchun kurash taraqqiyot uchun kurashning ramziga aylanib ketdi.

Tavallo teatrga bag‘ishlab 4 ta she'r yozdi. Ularning 2 tasi bevosita 1914 yil 27 fevral taassurotlari, quvonchlari asosida maydonga kelgan edi:

Ko‘rundi ko‘zga bukun millatning hayot asari,  
Teatr o‘ynadi yoshlar – taraqqiyning xabari.

Keling, ko‘ring, yuguring, siz emdi yoshu qari,  
Verar natijalar, ammo yo‘q buning tamom zarari.

Ko‘rinki, millatga emdi bu bir hayot asari,  
Teatr o‘ynadi yoshlar – taraqqiyning xabari, -  
degan satrlar bilan boshlanar edi ularning biri.

Ikkinchisida voqeа va uning tafsilotlarini, taassurotlarini ifoda qilar ekan, teatrga ibrat ko‘zgusi deb qaraydi:

Cho‘h munavvar etdi olamni Munavvar Qorimiz,  
Ko‘rdimiz ravshanlig‘idin fe'lizimiz, atvorimiz.

Ibrat oling yoshlar, deb to‘kdi ko‘zdin yoshlar,  
Nutqida tahrir etub, bizlarni yo‘qu borimiz...

Sahnag‘a qo‘ydi “Padarkush” fofia Behbuditin,  
Bahra oldi rusu arman, o‘zbaku totorimiz.

Ko‘rdular nodon cho‘juq, betarbiyat hangomasin,  
Dedilar bizni cho‘juqlar: “Emdi biz bezormiz”.

“Bu bola ermas balo!” – deb nechalar qon og‘ladi,  
Vahmig‘a ketdi o‘zidin bir necha ko‘knorimiz.

Bas, Ubaydullo, Karimbeku Nizomiddinlara  
Jumla qatnashganga to o‘lguncha minnatdormiz.

Barchadin avval kelib joy oldi, o‘lturdi, ko‘ring,  
Foydalandi, ibrat oldi, necha parhyezdorimiz.

Ko‘p umid birlan, Tavallo, boz bir o‘ynalsa deb,  
Belin bog‘lab, o‘zni chog‘lab bunda xizmatkorimiz.

Shoir teatrqa yuksak baho berdi. Uni taraqqiyotga omil deb bildi. Lekin sirasini aytganda, bu ish katta jasorat ham talab qilar edi. Abdulla Avloniyni bir vaqtlar teatrda o‘ynaganligi uchun mutaassiblar “masxaraboz bo‘ldi”, deb maktabini yopgan edilar. Sovet davridagi Nurxon, Tursunoylar taqdiri-chi?! Darhaqiqat, shoir aytganidek:

Bunga yetushmakimiz – yoshlaring mahorati, bu!  
Kimiki, sahnada ko‘rsang, ani jasorati bu!

«Nodon kishilarning teatrda olgan taassurotlari» deb nomlaydi adib bir maqolasini. Teatrni «ibratxona» deb atagan jadidlarimiz uning millat hayotidagi fazilatu nuqsonlarni ochiq ko‘rsatadigan oyna bo‘lmog‘ini orzu etgan edilar. Bu ma'lum. Shuning uchun ham Tavalloning fikricha: «... bir necha taraqqiydin bahra olg‘onlarimiz bunday nimarsani ko‘rgonig‘a quvong‘onidin bizlarg‘a hazrati Haq tarafidin bo‘lg‘on marhamatmi yoki bizning baxtimiz yori bo‘lg‘onimu, deb, ko‘zlaridin sevinch yoshin to‘xtata olmaslik darajada quvondilar». Ayrim «kasaltabiat, o‘z manfaatin bilmag‘on va millatin tanimagonlarimiz» esa «bu tiyotrni teskari fahm etdilar». Adibning ta'kidlashicha, ular «...yo‘q aqlin yogurtirmasdin mundoqcha farosatlarni eturlarki, bizlarga tiyotr ko‘rguzamiz deb, bizlarga ota o‘ldursangizlar

mundoqcha o'ldurasiz, deb bizning bolalarimizga ota o'ldurmoq ta'lumin ko'rsatdilar va misoli shunga o'xshash ters xayollari ila dunyoyi olamni bilchiratub yururlar».

Tavallo bularga quyidagi bayt ila javob beradi:

Aylasang to'tiya ta'limi adoyi kalimot,  
nutqi inson bo'lur, ammo o'zi inson o'lma.  
Gar qaro doshi qizil qon ila rangin etsang,  
rangi tag'yir o'luru la'li Badaxshon o'lma.

Aynan ijodiy faoliyatida millat va milliyat masalalari ustuvor bo'lgani uchun Tavallo istibdod qurbaniga aylandi. Adibning "Jinoiy ishi"da saqlangan "Mehnat daftarchasi"dan shu narsa ma'lum bo'ladiki, u 1917 yildan keyin ijodiy sohadan boshqa hamma ish bilan shug'ullangan. Ichki ishlardan ma'muriyxo'jalik, qurilishgacha bor. Chunonchi: 1918-19 yillarda Toshkentning dastlab Eski shahar, so'ng Yangi shahar ijroiya qo'mitalarida a'zolik qilgan. 1919 yilda partiyaga kirgan. Chekaga xizmatga olingan va 1922 yilgacha Respublika kollegiya a'zosi bo'lgan. 1922-23 yillarda ushbu tashkilotning Eski shahar ijroiya qo'mitasi a'zosi, shikoyatlar byurosi a'zosi, Farg'ona revtribunal a'zosi vazifalarini bajargan. 1924 yildan ichki ishlar va davlat muhofazasi tizimidan uzoqlashadi, kasaba uyushmasiga o'tadi. Tashsoyuz boshqarmasi a'zosi, 1925-26 yillarda esa Toshkent sanoat birlashmasi Kustpromsoyuz (Hunarmandchilik sanoati kasaba uyushmasi) raisi bo'lib ishlaydi. 1927 yil 23 oktyabrdan moliyaviy kamomad aybi bilan partiyadan o'chirilib, 5 yil qamoqqa hukm qilinadi, biroq 1928 yilning 11 yanvarida, aybi isbotlanmaganligi sababli, ozod etiladi. Shu yil Quruq mevalar omborida tarjimon bo'lib ham ishlagan ekan. Yil oxiridan 1930 yilning apreligacha KOOPstraxsoyuz (Shirkatlar sug'urta uyushmasi)da instruktor, Nonmarkaz instruktori (1930), Shirkatlar uyushmasi noziri (1930) vazifalarini bajaradi. 1931 yilning 15 dekabrida arizasiga ko'ra ishdan bo'shatilgan. Xomashyo va savdo sektori noziri qilib o'tkazilgan. 1933 yil 1 yanvardan Soyuzzagotxlopok (Ittifoq paxta tayyorlash) idorasi ixtiyoriga

yuborilgan; 1933 yil 22 noyabr - O'zpromstroy (O'zbekiston sanoat qurilishi) trestida nazoratchi-instruktor; 1934 yil 15 aprel arizasiga ko'ra ishdan bo'shatilgan. 1935 yil 29 yanvar- "Krasniy utilshik" («Qizil foydamand») artelida instruktor. 1935 yil 29 may arizasiga ko'ra bo'shatilgan.

Sud-tergov qoidalariga ko'ra ayblanuvchining qilmishlarigina emas, ularning tashqi ko'rinishi, ajratib turadigan xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar keltirilar edi. Tavalloning "Jinoiy ishi"da ham shu xil ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, "Anketa ma'lumotlari"da quyidagi gaplarga duch kelamiz: «tashqi ko'rinishi: o'rta bo'y, bo'yi 1 metru 56 sm, ko'zi - qo'y ko'z, sochi-qora». Darvoqe', "Jinoiy ish" materiallarida "ayblanuvchi"ning yana bir jihat maxsus ta'kidlangan: «keragicha notiq».

1937 yil 14 avgustda Tavallo «aksilinqilobiy» "Turon", "Sho'royi islom", "Ittihodi taraqqiy", "Milliy ittihod", "Milliy istiqlol" tashkilotlarining a'zosi", "Millionerning o'g'li", "she'rlarida millatchilik g'oyalarini ilgari surgan"likda ayblanib, qamoqqa olinadi.

Qamoqqa olinganda oilada besh kishi bo'lgan: o'zi - 54 yoshda, xotini-Zuhra Miyorova - 40 yoshda, o'g'li Maqsud Miyorov - 16 yoshda, qizi Sanobar Miyorova - 11 yoshda. 1913 yilda tug'ilgan Rahbar ismli qizi 1936 yilda turmushga chiqqan bo'lib, Buxoroda yashar edi.

Agentura materiallaridan: "T.X milliy respublikani mustamlaka" deb aytdi. Ko'pchilik orasida "O'zbek xalqi o'zaro nifoq va qo'rkoqlik orqasidan xor-zor, qizillarga tutqun bo'ldi. Sabr kosasi bir kun to'ladi va xalq sovet hukumatiga qarshi qo'zg'alishga majbur bo'ladi. Agar men inqilobni shunday kunlarga olib kelishini bilsam edi, butun vujudim bilan unga qarshi kurashar edim", dedi.

To'lagan Xo'jamyorovning tergov ishlari tezlashib ketdi. O'zbekiston ichki ishlar xalq komissari muovini Leonov imzolagan "Ayblov xulosasi" 1937 yil 9 sentyabrda 25 kunda tayyor bo'ldi. Unda Tavalloning 1919 yilda Osipov

qo‘zg‘oloniga “qatnashgani”gacha “tasdiqlatib” olindi va bir qator “ayb”lar bilan uchlik hukmiga havola etildi.

Shu yilning 19 oktyabrida NKVD qoshidagi uchlik majlisida Tavallo otib o‘ldirishga hukm qilinadi. Hukm o‘sha yili 10 noyabrda ijro etiladi.

Tavalloning 1968 yilda Buxorodagi qizi Rasulova Rahbarning DXQ idoralari yozgan xatlari mazmunidan anglashilishicha, bu yilga kelib, shoir oilasidan undan boshqa hyech kim qolmagan.

Tavallo jisman mahv etilgan bo‘lsa ham uning millat va milliyat masalalari bag‘oyat ta’sirchan ifodalangan she’rlari yashashda davom etaverdi. Shoir asarlari keyingi avlod ijodkorlari uchun o‘ziga xos maktab bo‘ldi deyilsa, aslo mubolag‘a emas. Atoqli yozuvchimiz Oybekning “Bolalik” asaridan olingan mana bu so‘zlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: “Ayvonda muk tushib Tavalloning she’rlarini o‘qishga kirishaman. Hajviy she’rlarida eski odamlarning to‘y-hashamlarini xo‘p tanqid qilgan. Ko‘pgina she’rlarida hayot lavhalari, manzaralari yaxshi tasvir etilgan. Menga qattiq ta’sir etadi. To‘yu bazmlar, boylarning fisqu fujuri, xalqning savodsizligi, madaniyatsizligi, qoloqlik to‘g‘risidagi har xil o‘tkir iboralar menga g‘oyat ta’sir qiladi. Ayniqsa, maktab masalasi, teatr haqida, yoshlarning birinchi marta tomosha qo‘yganlari haqida yozganlari g‘oyat ta’sirli. O‘qiymen, diqqat bilan berilib uzoq o‘qiymen... Hajvlari o‘tkir, so‘zlari yurakdan aytilgan, samimi... She’rlar rangdor, jonli, tili o‘ziga xos, ravon...”

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib aytish mumkinki, Tavallo she’riyatida millat va milliyat masalalari talqini yetakchi o‘rin tutadi. Shoirning deyarli har bir she’rida bu mavzuga murojaat etilgan. Millatning shonli tarixi, so‘nggi asrlarda uning boshiga tushgan kulfat va musibatlar alami, tanazzul changalida qolganidan paydo bo‘lgan armon va iztirob, uni inqirozdan olib chiqish orzusi betakror badiiy talqin qilingan.

## **II BOB. TAVALLO SHE'RIYATIDA TURKISTONNI TARAQQIYOTDAN ORTDA QOLDIRAYOTGAN ILLATLAR TANQIDI**

### **2.1. Shoir nazmida Yevropa va Turkiston qiyosi**

Taraqqiyotning baland darajasiga erishgan Yevropa va tanazzul iskanjasida qolgan Turkiston qiyosiga yuksak umuminsoniy mezonlar asosida yondashish, masalaning tub mohiyatidan, ildizidan kelib chiqib fikr yuritish, Vatan va millat manfaati nuqtai nazaridan baholash – mutafakkir jadidlar ma'naviy-axloqiy qarashlarida alohida o'rinn tutadi. Bu boradagi qarashlar silsilasida To'lagan Xo'jamyorov Tavallo nuqtai nazari teranligi, keng qamrovli ekanligi jihatidan alohida ajralib turadi.

Ismoilbek Gaspralining yozishicha, amerikalik olim Draber "Ovrupaning aqliy taraqqiyoti tarixi" nomli asarida Ovrupa qo'lidagi bugungi mash'ala musulmonlar yoqib ketgan shamlarning, chiroqlarning yog'dusidan maydonga kelganligini aytgan. Shuning uchun Ovrupaga mahliyo bo'lish, unga ergashish emas, uning madaniyat niqobidagi harakatlariga xolis baho berish Sharq uchun muhimroqdir, degan g'oya jadidlarni ko'proq o'ylantirgan. Ushbu g'oya Tavallo she'rlarida ham obrazli tasvirlangani kuzatiladi.

Tavalloning zamondoshlaridan biri mutafakkir Abdurauf Fitrat tarixda tinchlik va taraqqiy beshigi, madaniyatning yo'lboshchisi, bilim va hunarning o'chog'i bo'lgan ko'hna Sharqning XX asr avvaliga kelib, "qon tengizlarinda botg'an"idan, "tamug" o'tlarinda ko'mulgan" idan nadomatini ifoda etadi. Holbuki, chinakam madaniyat Sharqda shakllangani, aynan shu zaminda yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarilgani ayon. Fitratning fikricha, Sharqda madaniyatning yuksalishi teran ildizlariga ega va G'arbning madaniyattarqatuvchilik da'vosida asos-zamin yo'q. Mutafakkirning bu boradagi qarashlari Tavallo asarlarida izchil davom ettirilganligini alohida ta'kidlash kerak.

Professor Begali Qosimovning fikricha: “Tavallo jahonning, chunonchi Ovrupo va Amerika xalqlarining taraqqiyot asridagi hayotiga nazar tashlaydi. Bir tomonda ilm-fan, texnika yangiliklarini turmushga joriy etib, og‘irini yengil, hayotini farovon qilayotgan millatlar, ikkinchi tomonda, Odam Atodan kelayotgan, allaqachon eskirib ishdan chiqqan ishlab chiqarish usuli va vositalariga mahkam yopishib, dunyoda shuni so‘nggi mo‘jizadek ushlab olgan Turkiston. Shoir har ikkisini muqoyasa qiladi. Bu muqoyasa, hajviy mazmun tashiydi, albatta”.<sup>20</sup>

Masalan, shunday she'rlaridan biri “Yovrupo bilalar hunari birlan bizlarni(ng) hunarlarimizning farqi” deb sarlavhalangan. She'r boshdan-oxirigacha kesatiq-qochiriqlar, istehzo asosiga qurilgan. Shoir she'rni hatto o‘z millatiga emas, “Yovrupo ahliga” murojaat bilan boshlaydi. “Yovrupo ahli”ni bahsga, mubohasaga chorlaydi:

Yovrupo ahli, siz qulq solingiz,  
Biz hunarlar yozib tonushtiramiz.

Kelturing zanbarak, quroq necha xil  
Bizni sopqon ila otushtiramiz.

Aftomobil, arobangiz qayda,  
Xo‘qand arba bilan chopushtiramiz...

Qani ayrapilonu gidrapilon,  
Varvarak birla biz uchushtiramiz.

Siz zobutda yasab tavar keturing,  
Bo‘yra bordon bila to‘qushtiramiz.

---

<sup>20</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Т.: “Маънавият”, 2002, 311-бет

Shu asnoda “zanburak” – ”sopqon”, “aftomobil” – “Xo‘qand aroba”, “ayripilon” – “varvarak”, “zobut” – “tovar” – “bo‘yra-bordon” muqoyasalari oddiy mazax-kulgidan vaziyatga fojeiy mazmun beruvchi zaharli istehzoga aylanadi.

Shoir fojianing o‘zini bayon etish bilangina cheklanib qolmaydi. Uning ildizlariga nazar soladi. Nima uchun millat bunday fojeiy ahvolga tushgani to‘g‘risida tafakkur yuritadi. Uning fikricha, buning bosh sabablaridan biri to‘g‘ri so‘z o‘rnini yolg‘on, mehr-oqibat o‘rnini ig‘vo, teran tafakkur o‘rnini bid'at egallaganida:

Biz bilurmiz, siz to‘g‘ri so‘zni quli  
Lek biz yalg‘onlar qotushtiramiz.

Do‘ssti dushman edub, solib ig‘vo  
Gap toshub o‘rtaga choqushtiramiz.

Qo‘lda bid'at maromnomasi bor,  
Kim yaqin kelsa biz yopushtiramiz.

Fojianing sabablari faqat yuqorida tilga olinganlar bilangina cheklanmaydi. Millat o‘z kelajagi haqida o‘ylamay qo‘ygan. Uning o‘rniga bedanabozlik, kaklik cho‘qishtirish, qo‘chqor urushtirish singari umrni zoe etadigan yumushlar bilan band. Shunday bo‘lgach, taraqqiyot haqida orzu ham qilib bo‘lmasligi ayon. Shoir bu holatdan qattiq ta` sirlanadi, o`kinchlarini kinoya orqali quyidagicha ifodalaydi:

Bormu sizda bedona, kakliklar,  
Pul tikub o‘rtaga cho‘qushtiramiz.

Bor bizda hunar – boqib qo‘chqor,  
Moy surub shoxiga so‘qushtiramiz.

Siz tikursiz kiyumni sillig‘ edub,  
Biz hamon tiksamiz burushtiramiz.

Eng yomoni, Yevropa avlod tarbiyasini, yoshlarni ilm-ma'rifatli qilishni maqsad qilgan bir zamonda Turkiston kelajagi bo‘lgan farzandlarining ilmsiz, jaholat iskanjasida qolishiga rozi bo‘ldi. Ularga zamon talabi bo‘lgan bilimlarni o‘qitish tadorigini ko‘rmadi. Mana, fojianing asl ildizi:

Sizni bola o‘qur kitobga qarab,  
Biz-chi shipga boqub o‘qushtiramiz.

Nomi maktab sizing Remeslenniy.  
Cho‘bni qo‘chqor qilub urushtiramiz.

Yoz, Tavallodek hunarni Yovrupo,  
Biz o‘qub xo‘b ani surushtiramiz.

Yoki “Ibrat bog‘inda” she‘rini olaylik. Shoir istirohat bog‘ida sayr etarkan, ikki xil manzarani ko‘radi. Shu ma’noda ushbu “tomosha bog” aslida ibrat bog‘idir.

Toshkandda koni ibratdur tamoshbo bog‘imiz,  
Ne havodislar ko‘rarmiz onda borgan chog‘imiz.

Bir ajoyib xonadur, ming turli inson sayr etar,  
Hyech kelishmas onda borub bizni o‘ltirmog‘imiz.

Shoir tomoshabog‘dagi o‘zga millat vakillari bilan millatdoshlarining holatini o‘zaro qiyoslaydi. Bu qiyos, tabiiyki, uning ko‘ngliga halovat, qoniqish emas, o‘kinch va alam soladi. Lekin nima ham qilsin, ana, bir guruh “chaman bulbullari” bog‘da “tovus” kabi “xirom” qilmoqdalar, “yo‘z fasli oq badanlariga” “oq kiyimlar” kiygan, “iskameyka”larda “rohat qilib” dam olmoqdalar. Bu insonning o‘z insoniy sha’nini qadrlamog‘idir. Endi, ikkinchi manzaraga ko‘z tashlang. Yo‘l ustida to‘planib, qarg‘alardek qo‘nqayib olgan, kishilar. Ana,

birovi “kafshi”ning “loyi bilan” “iskameyka”ga cho‘zilgan. Yo bo‘lmasa, “yoz fasli” bo‘lishiga qaramay”, “paxtalik”ni tashlamasdan “yelkaga yog‘ini chiqarib” kiyib yurgan, “uch qabat kamzulni ustidan” “sakkiz quloch belbog” bog‘lab olgan millatdoshlarimizni aytmaysizmi?!

Ko‘r chaman bulbullari tovus kabi qilsa xirom,  
To‘plashib yo‘l ustida go‘yoki bizlar zog‘miz.

Iskameyka uzra o‘ltirsa necha rohat qilib,  
Kafshimiz loyi bila biz ustida yotmog‘imiz.

Yoz fasli oq badanlar oq kiyimlar kiysalar,  
Paxtalikni tashlamay yelkaga chiqg‘on yog‘imiz.

Uch qabat kamzulni ustidan yana bir kattakon.  
Bog‘labon mahkam qilib sakkiz quloch belbog‘imiz.

Nega birovlar ozoda kiyinib, chiroyli bo‘lib, huzur-halovat bilan yurganda biz “paypog‘imiz sudrab” ko‘cha changitamiz. Ana yana biri kelyapti, “ishtonni tizidan yuqori” ko‘tarib olgan, “ko‘krak ochiq“. Semiz qorni, jundor ko‘kragini ko‘z-ko‘z qilib kelyapti. Uning uchun dunyoda shundan buyuk martaba yo‘q:

To‘g‘ri yurmay turtunub bosduk ayog‘in nechani,  
Ruscha “len” totorcha “yolqov”, turkcha “shaltog‘miz”.

O‘tsalar har yon shivirlab tuqli kiygan har taraf,  
Changitarmiz bizni ko‘r, sudrab hamon paypog‘imiz.

Ko‘tarub ishtonni tizdan yuqori, ko‘krak ochiq,  
Ko‘rsatub ko‘krakda jun necha semiz qursog‘imiz.

Bog‘bon (“sadovnik”) yo‘qol (“ubrays!”) deb to‘g‘ri bo‘lsa, (Tomoshaboqqa mahalliy xalq kirib, o‘ris to‘ralarning halovatini buzishi

mumkin emas-da), “gaspodin”dan boshqa so‘z ayta olmay, chuldirab qolamiz. Uzoqda birorta “mundir kiygan soldat” ko‘rinsa, qo‘yavering, boqqa kirmasdan quyonni uramiz. Qorovul-porovul ko‘rsak-ku, Xudo urdi, ko‘chama-ko‘cha oshamiz. Uyga kelganda esa yuragi tog‘miz. Bu misralar millatning nochor ahvoli bois shoir qalbida tug‘ilgan iztirobu o‘kinch ifodasi o‘larоq ijod etilganini sezish qiyin emas:

Kelsa “ubrays” deb sadovnik quvlasa bog‘dan bizi,  
“Gospodin”dan boshqa so‘z yo‘q ruschaga cho‘ltog‘miz.

Gar mabodo ko‘rsamiz saldatni mundir kiyganin.  
Boqqa kirmasdan qocharmiz o‘lgucha qo‘rqog‘miz.

Qorovul ko‘rsak, yugurub ko‘chalarda har taraf,  
Bil, Tavallo, uyga kelganda yurakka tog‘miz.

Mantiqan shunday xulosa chiqadi: nahotki bu o‘sha dovrug‘i jahon Turkiston? Nahotki bu sho‘ring qurg‘urlar dunyoga qanchadan-qancha daholarni yetkazib bergen, Amir Temurday jahoni y zotlari bilan yarim jahonga egalik qilgan, insoniyatga insonlarcha yashashni o‘rgatgan, asrlar davomida kuch-qudrat, aql-shijoat timsoli bo‘lib kelgan yurtning farzandlaridirlar.

Aslida, shoir demoqchi bo‘lgan gap ham shu.

Ma'lumki, Tavallo mumtoz she'riy janrlarda ijod qildi. Biroq uning she'rlarida mazmun tamomila yangilangani kuzatiladi. Shoir zamona ahvolini teran idrok etadi. Bir tomonda taraqqiy etgan, kundan-kunga ravnaq topib borayotgan Yevropa, ikkinchi tomonda – inqiroz chohiga tobora chuqurroq botayotgan ona Turkiston. Bu holat shoirni iztirobga soladi, qalbini o‘rtaydi. Odatda, mumtoz g‘azal janrida radif qo‘llashda bir so‘zni uch marta takrorlash holati kamdan-kam uchraydi (Ayniqsa, “yo‘q, yo‘q, yo‘q” tarzida). Tavallo qalbidagi armonlarini, dardlarini ta’sirliroq ifodalash uchun bo‘lsa kerak, “Jahon ayvonida...” deb boshlanuvchi g‘azalida “yo‘q” radifini uch marta takrorlaydi.

Jahon ayvonida bizdek badan afgor yo‘q, yo‘q, yo‘q,  
Bilurga bu badan afgorini hushyor yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Netay qon yig‘lamay, do‘stlar, jahonda biz kabi bormu?  
Aromizda, biling, bir voqifi asror yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Yoturmiz doimo g‘aflat to‘shogi uzra yonboshlab,  
Kelib boshimiza uyg‘otguchi bir yor yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Shoir fikricha, o‘sha davrda Turkiston ahlidek “badan afgor” – butun vujudi majruh “jahon ayvonida”, ya’ni dunyoning biror mamlakatida topilmaydi. Eng yomoni, u ana shunday ahvolda ekanligini anglaydigan kishi – “voqifi asror”ning o‘zi yo‘q. Tanazzul changalidan yoqasini bo‘sata olmayotgan Turkistonning fojeiy holatini bundan ham ta’sirchan ifodalash qiyin bo‘lsa kerak. Sababi – g‘aflat to‘shagiga yonboshlab yotganimiz. Boshimizga kelib uyg‘otguvchi yor ham. Afsuski, topilmaydi.

Hama o‘z boshig‘a ovora millatga nazar qilmas,  
Milliyat hislari bizda, ko‘ring, miqdor yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Desam dunyoda bizdek ortda qolg‘on bormu millatdan,  
Bu Turkiston elidin tobmadim iqror, yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Shoir ona yurt tanazzulining sabablarini birma-bir keltiradi: 1) hama o‘z boshiga ovora; 2) milliyat hislari bir miqdor ham qolmagan; 3) dunyoda taraqqiyotdan bu darajada ortda qolgan boshqa millat qolmagan, biroq Turkiston elida bu haqiqatni anglaydigan, iqror etadigan kimsa yo‘q.

Taraqqiy qildi millatlar, yotursiz tobakay desam,  
Jaholat birla g‘aflat yaxshidir osor yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Olingiz bu “Sado”lardin o‘qub ibrat, dedim, ahbob,  
Javob oldim: “Gazet bizga debon darkor yo‘q, yo‘q, yo‘q”.

O‘zga millatlar taraqqiyga erishganini aytib, g‘aflatdan bedor bo‘lishga da'vat etsa, jaholat birla g‘aflat yaxshiroq ekanligi javobi eshitilsa, nima qilmoq kerak? “Sado”lar – Toshkentda chop etila boshlagan “Sadoi Turkiston” va Farg‘onada bosilayotgan “Sadoi Farg‘ona” gazetalarini shoir she’nda shunday qo‘llaydi. O‘sha davrning ana shu eng mashhur gazetalarini o‘qib, ibrat olishga da'vat etilsa, gazeta mutlaqo darkor emasligi haqidagi javob olinsa, qanday yo‘l tutmoq zarur?

Dedim: “Ahvolingizga Yovrupo, Amriko, Maskovlar  
Taajjub aylayub, hyech kulmag‘ay totor, yo‘q, yo‘q, yo‘q”.

She'r shoir va millat o‘rtasidagi munozara usuliga qurilgan. Shoir fikricha, Turkiston ahvoli shu darajada og‘irki, hatto Yovrupo, Amriko, Maskovlar bunga kulmaydi, faqat taajjub qiladi. “Yo‘q, yo‘q, yo‘q” radifining har baytda takrorlanishi fojeiylikning darajasini yanada kuchaytirib keladi.

Dedi: “Behuda yozma, bosmayur she'ringni “Farg‘ona”,  
Gazet birlan xabar verdi yozib takror yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Dedim: “Millat uchun o‘ldursa ham yozmoqni qo‘ymasman”,  
Alar dedi: “Tavallo, sanda hyech bir or, yo‘q, yo‘q, yo‘q.

Munozara shu darajaga borib yetadiki, shoirni she'r yozishdan qaytarishga urinishadi. She'rni “Sadoi Farg‘ona” bosmasligini aytib, tahdid qilishadi. Shoirning esa, maqsadi – millat. Shu bois u o‘ldirsa ham yozishga qaror qilgan. She'r ana shunday fikrlar ziddiyati asosiga qurilgan. Bu usul Tavallo she'rlarida yetakchi o‘rin tutishini ta'kidlash kerak.

Tavallo millatni Yevropa madaniyati yutuqlaridan bahramand etish masalasiga alohida e'tibor berdi. O‘z hayotining ma'nosini xuddi shu narsada ko‘rgan Tavallo 1914-1916 yillarda jo‘shib ijod qildi: mакtab va maorif, matbuot va teatr sohalaridagi yangiliklarni chin dildan olqishlab, xalq va jamiyat hayotidagi quyidagidek sharmandali hollarni hajv o‘ti bilan bartaraf etishda o‘zining shoirlig burchini ko‘rdi:

Osmondagi sayyoralar, boqg‘il, qayonga boralar,

Ey nafs ila avvoralar, nechun bilolmaysiz nechun?

Simsiz birovlar so‘zlashub, millat nomini o‘ylashub,

Yurganda siz to‘y-to‘ylashub, hyech bir uyolmaysiz hanuz.

Askar otib bil, zambarak, borlarni qildi bedarak,

Siz bog‘da chalub tartarak, sobqon otolmaysiz hanuz.

G‘irromofo‘n aylar sado, bir igna birla ming navo,

Fatsun olub, ey bedavo, tinch uxlayolmaysiz hanuz.

Shoirning 1916 yili yurtdoshlari sha'niga aytgan bunday gina-kuduratli so‘zları aholi o‘rtasida katta aks sado berdi.

Tavallo boshqa jadid shoirlari singari, nafaqat Rossiya, balki Yevropa xalqlari hayotidan, shu mamlakatlardagi ilmiy va madaniy hayot yangiliklaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. Shuning uchun ham u Turkiston xalqining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy qoloqlikda yashayotgani bilan aslo murosa qila olmadi. Qalbida mavjud achinarli holga nisbatan isyon alangalari gurlagan shoir xalq ko‘ziga ko‘zgu tutib, bu ko‘zguda elu yurt turmushining ba'zi bir mudhish lavhalarini aks ettirishga katta e'tibor berdi.

Yuqoridagi hajviyani o‘qir ekansiz, shoirning o‘tgan asr boshlaridagi Turkiston xalqiga xos illatlarni shafqatsizlik bilan fosh etgani va shu yo‘l bilan xalq mentalitetidagi qusurlarga qarshi o‘t ochganiga guvoh bo‘lamiz.

Hajv, satira shu davrda Tavallo singari shoirlar qo‘lida shunday qudratli qurol vazifasini ado etdiki, ular bu qurol bilan qoloqlik va jaholatga qarshi

kurash maydoniga otilib chiqdilar. “Ravnaq ul-islom” dan o‘rin olgan she'r va hajviyalar choyxonalar va gap-gashtaklarda o‘qilib, ularda kulgi ostiga olingan salbiy hodisalarga barham berish choralar ko‘rildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Tavallo mакtab-maorifni rivojantirish masalasini ham hayotiy ehtiyoj deb bildi. Uning maktabga bag‘ishlangan she'ri buning isbotidir:

## **2.2. Zamon voqealariga munosabatning she'riyatdagi ifodasi**

XX asr boshlarida yetishib chiqqan jadid shoirlari orasida Tavollo alohida o'rinni egallaydi. Oybekning "Bolalik xotiralarim" kitobida katta hurmat bilan tilga olingan bu otashnafas shoir "Ravnaq ul-islom" she'riy to'plami bilan shu davr she'riyatida yangi bir sahifani ochdi. "Ko'pgina she'rlarida hayot lavhalari, manzaralari yaxshi tasvir etilgan", "Hajviy she'rlarida eski odamlarning to'y hashamlarini ko'p tanqid qilgan" (Oybek) Tavollo o'zining sodda til va uslubda yozilgan she'rlari bilan o'sha davrda qariyb har bir xonadonga kirib bordi. Uning xalq va jamiyat hayotining chirkin tomonlarini yengil va nafis humor bilan tasvirlagan she'rlari jadid she'riyatining xalqchil va ayni paytda kurashchan she'riyat bo'lishiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Tavalloning hayoti va taqdiri to'g'risidagi biografik ma'lumotlar yaqin-yaqingacha bir-biriga zid fikrlardan iborat bo'lib keldi. Xususan, toshkentlik qator mumtoz shoirlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni bergen. Po'latjon Qayumiy Tavollo haqida o'z tazkirasida bunday so'zlarni yozgan:

"Bu kishi Toshkand shahridan. Jadidizm davrining mashhur arboblaridandur. "Turkiston viloyati gazeti"da elni ilm ma'rifikatga chaqiruvchi navhali she'rlari bosilib turar edi. Sayram qasabasida qozi Bayzo nomli mozorli joyda yashab, 1913 yilda vafot etdi va shul mozor qabristoniga dafn qilingan.

Shoir mavlono Yusuf Saryomiyning shogirdi bo'lib, uning devonini to'plab bostirmishdur..."

Yusuf Saryomiy to'g'risidagi so'zlarni istisno qilganda, "Tazkira Qayumiy"da berilgan aksar ma'lumotlar, afsuski, haqiqatdan ancha uzoq.

Shoirning sevimli mavzularidan biri hurriyat edi. U inson erkini har narsadan ustun qo'ydi. Uning talqinidagi erkning ma'nosi g'oyat keng. Bu erk siyosiy, iqtisodiy mustaqillikdan tortib nafsga, huzur-halovatga, qullikdan ozod bo'lishgacha o'z ichiga qamrab oldi. U xotin-qizlar hurriyatiga keng e'tibor berdi. Masalan, "Qarindosh va hamshiralarimiz mazluma qizlar tilindan"

she'rida qizlar otalariga murojaat qilishib, ularni ham o'qitishni, ularga ham insoniy munosabatda bo'lishni so'raydilar. Bugina emas, she'rda teng nikoh haqida so'z ochiladi:

O'qutg'on so'ngra vergonda, kuyov tengdoshimiz o'lsun,  
Ikov ham ilmlik, yoshlikda birdek yoshimiz o'lsun,  
Jahonda shod o'lub hamoxirat qardoshimiz o'lsun,  
Agar chollarga tushsak, zahr ichgon oshimiz o'lsun,  
Iloho, saqla, bizni dunyoda mundoq falokatdan.

Tavallo, garchand Mahmudxo'ja Behbudiy singari dunyo kezgan shoir bo'lmasa-da, boshqa xalqlarning qanday ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotganidan yaxshi xabardor bo'lgan. Shuning uchun ham u o'z millatining har tomonlama ayanchli ahvolda yashayotganini ko'rib, nola qilgan:

Falak, bizga xabar ber, nechun bee'tibor etding,  
Jahonda barcha ellar ichra bizni sharmsor etding.  
Jaholat rishtasiga band etib, rahm etmading hargiz.  
Falokat xandaqi uza bugun bizni duchor etding.  
Sharorat yomg'urini yog'durub millatni boshig'a,  
Adovat otig'a otlanturub bizni suvor etding...

Shoir bunday she'rlari bilan xalqni milliy taraqqiyot sari yetaklayotgan peshqadam jadid ma'rifparvarlari qatoridan mustahkam o'rin egalladi. Xalqning ijtimoiy, madaniy va ruhiy hayotidagi illatlarni keskin fosh etuvchi she'rlaridan iborat "Ravnaq ul-islom" to'plamining chop etilishi esa davrning adabiy-ijtimoiy hayotida ulkan voqeа bo'ldi.

Tavallo millatni taraqqiyiga boshlamoq uchun boshqa qardoshlarimiz ahvolidan ibratlanmak zarurligiga e'tibor qaratadi. Jumladan, ijokdor bir maqolasida ijтиҳод va ittifoq zarurligini quyidagicha ta'kidlaydi: «Mundan o'n yillar muqaddam bizlar kabi yashagan totor qardoshlarimiz hozirgi kunda bor quvvatlari ila g'ayrat qilub, madaniyatda birinchi darajada turg'on rus vatandoshlarimiza yetub boralar, —deya xitob qiladi Tavallo, — . Bunlar

barchasi ijтиҳод ва иттиғоқ самарасидур. Ко‘з олдимизда шундайин диндошларимиз тург‘онда, на учун бизлар шулардан ибрат олмаймиз, шунлар ила қо‘л-бақо‘л турушуб тараққиёning ijтиҳодинда бо‘лмаймиз? Иjтиҳод ва иттиғоқ лозим, qardoshlar!»

Shoirning bir qator she'rlari davr yangiliklari, kundalik voqealar haqida. Masalan, “Oyna” (muharriri Behbudiy) jurnalining (1913), “Sadoyi Turkiston” (muharriri Ubaydulloxon Asatullaxo‘jaev) gazetasining (1914) chiqishlari Ismoilbek vafoti (1914), Qars (Turkiya)dagi zilzila (1914), ayniqsa, Birinchi jahon urushi va u bilan bog‘liq hodisalar Tavallo diqqatidan chetda qolgan emas. O‘zbek teatrining maydonga kelish voqealariga bag‘ishlangan bir emas to‘rt she'ri bor. Shulardan biri bevosita ilk o‘zbek teatri tomoshasi 1914 yil 27 fevralda Toshkentdagи «Kolizey» teatrida Avloniy truppassi tomonidan Behbudiyning “Padarkush” dramasi qo‘yilishiga bag‘ishlangan. Shunda mashhur ma'rifatchi Munavvarqori Abdurashidxonov teatr haqida nutq so‘zlagan edi. She'r ham shu voqeani hikoya qilishdan, “Cho‘q munavvar etdi olamni Munavvarqorimiz” deb boshlanar edi. Ikkinchisi, esa bu voqeani, ya'ni teatrning paydo bo‘lishining ahamiyatini ta'kidlab ko‘rsatdi. Shoir, fikricha, yoshlarning teatr o‘ynashi, millatning hayot asari ko‘ringanidan-tirikligidan nishonadir, “taraққиёning xabari”dir.

1914 yil 30 avgustda Munavvarqori, Avloniy, M.Podshoxo‘jaev, Husanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li (yozuvchi Said Ahmadning otasi), Saidabdullo Saidkarim o‘g‘li Saidazimboev, Komilbek Norbekov (jam'i 12 kishi)lar bilan birgalikda Toshkentda “Nashriyot» shirkatini tuzib, kitob chiqarishni yo‘lga qo‘yadilar. 1915 yilda esa Avloniylar tashabbusi bilan tuzilgan “Turon” jamiyatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Lekin asl kasbi – savdo ishlaridan uzilib ketmaydi. 1917 yil voqealariga qadar mazkur sohada muntazam ishlaydi.

20-yillarda “Mushtum” hajviy jurnalining faollaridan edi. Mazkur jurnal sahifalarida “Mag‘zava” imzosi bilan o‘nlab hajviy she'rlari chop etilgan, ular ham yig‘ilgan, o‘rganilgan emas.

“Ravnaq ul-islom”ni varaqlar ekanmiz, nafaqat 10-yillarda she'riyat muxlislarining e'tiborini qozongan, balki hozir ham g‘oyaviy-badiiy fazilatlari bilan bizni hayratga soluvchi ko‘plab she'rlarni uchratamiz. O‘tgan asrning 10-yillarida Turkistonda ro‘y bergen ijtimoiy ahamiyatga molik voqeа va hodisalar, bu – Birinchi jahon urushining boshlanishi va “Sadoi Turkiston” gazetasi yoki “Oyna” jurnalining dunyo yuzini ko‘rishi bo‘ladimi, Ismoil Gasprinskiy yoki Abdulla To‘qayning vafot etishi bo‘ladimi – bularning barchasiga Tavallo faol munosabat bildirdi. Uning shu davrda yaratgan she'rlarini ma'rifatparvarlik va milliy taraqqiyot g‘oyalari o‘zaro birlashtirib turadi. Muallif ularda milliy uyg‘onish davrining tom ma'nodagi otashin kuchisi sifatida gavdalanadi.

1917 yil Fevral inqilobi natijasida “oq podsho” taxtdan ag‘darildi: jadidlar orzu qilgan kun yetib keldi. Ammo sopqon otishni ham bilmagan, to‘y-to‘ylashdan boshqa dardi, orzu-havasi bo‘lmagan xalq yana qul bo‘lib qoldi; “oq podsho” o‘rniga “qizil podshochalar” – bolsheviklar keldi.

Bolsheviklar erk berilgan taqdirda jadidlar yana xalqni uyg‘otishda, mustaqillik sari yetaklashda davom etishlari mumkinligini yaxshi bilishardi. Shuning uchun ham ular bunday kishilarni o‘zlarining ashaddiy dushmanlari, deb hisoblashdi.

XIX asr XX oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda boshlangan milliy uyg‘onish harakati o‘zbek xalqi tarixining buyuk sahifalaridan birini tashkil etadi. Agar taqdir shu harakat to‘lqinida otilib chiqib, millatparvarlik va taraqqiyparvarlik g‘oyalari balqib turgan asarlari bilan mudroq xalqni uyg‘otgan Mahmudo‘ja Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Tavallo, Abdulla Qodiriy singari shoir va yozuvchilarga kulib boqqanida, ular qanday buyuk ishlarni amalga oshirgan, o‘zbek xalqini qanday taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan bo‘lardilar. Afsuski boshqa milliy tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham “agar” degan so‘z bor. Biz shu so‘z tufayli yupanib, ularning mustabid davlat tegirmonida ezib-majaqlab tashlangani bilan murosai madora qilib kelamiz.

Xalq ommasining mustamlakachilik zulmi va zulmatidan xira tortgan ko‘zlarini ochish, uni so‘ngi asrlarda o‘z qa'riga tortgan qoloqlik muhitidan xalos etish uchun avvalo o‘zi kechirayotgan turmushning ayanchli manzaralarini, o‘zining nochor ahvolini, elu yurtni chirmab tashlagan jaholat va nodonlik pechaklarini unga yaqqol ko‘rsatish lozim edi. Buni yaxshi tushungan Tavallo birinchi navbatda hajviy lirika imkoniyatlaridan foydalanishni o‘ziga maqsad qilib oldi. Mumtoz adabiyotimizdagi hajv san'ati an'analaridan yangi tarixiy-madaniy sharoitda mahorat bilan foydalanish va davom ettirish san'atini mukammal egalladi.

Jonli xalq tilida “teskari zamon”, “zamon teskari burildi” singari iboralar mavjud. Bunday iboralar ijtimoiy silsilalar orqasida milliy ma'naviy qadriyatlarga g‘uor qo‘na boshlagan zamonlarda paydo bo‘lgan. Tavallo “Teskari ishlarimiz haqinda” degan she'rini yozgan o‘tgan asrning 10-yillarida bunday iboralar yanada ommalashgan va davr ruhi bilan uyg‘unlashgan edi. U taraqqiyparvar shoир sifatida bu iboraning noto‘g‘ri qarashlar asosida tug‘ilganini aytib, o‘z fikrini bunday dalillagan:

Teskari, demang, zamon, bizning yurishlar teskari,  
Eldin ibrat olmayin bizda turushlar teskari.

Qo‘ysa gar millat qadam, rohi taraqqiy izlasa,  
Dar mahal done o‘lub yo‘ldin urushlar teskari.

Yo‘q, demang, bizda muharrir, shoир, ey ahboblar,  
“Oy yuzingdan, voy, ko‘zingdan”, deb yozishlar teskari...

Shoirning maktab ta'rifidagi she'rida maktabning millat taraqqiysida tutgan o‘rni nechog‘lik baland ekanligi masalasi kun tartibiga qo‘yiladi. Ijodkor fikricha, maktab shunday bir maskanki, unda beadab odob o‘rgansa, bedavo betob shaksiz dardiga shifo topadi. Maktab shunday bir dargohki, unga

borganlarning ko‘ngli noyob duru javohirlar bilan ziynatlanadi. U maorif tashnalarini serob qilsa, qoraygan dillarni mohtob yanglig‘ nurafshon etadi:

Muqarrar o‘rganur har beadab odob maktabdan,  
Davo shaksiz topar har bedavo betob maktabdan.  
Ko‘ngul ganjina o‘lg‘on pur durri noyob maktabdan,  
Maorif tashnasi kimsa bo‘lur serob maktabdan,  
Qaroyg‘on dil o‘lur albatta bir mahtob maktabdan.

Noxush o‘lg‘aydi borsa bir necha beibolar maktab,  
Ochib yurmasdi ko‘krak ul yaqosi choclar maktab,  
Uyotur erdi eldin borsa beidroklar maktab,  
Tuzalg‘aydi o‘qusa bir necha shakkoklar maktab,  
Falakka yetdi boshi g‘ayrini ahbobi maktabdan.

Adib nafaqat she'rlarida, publitsistik maqolalarida ham mакtab-mаorif masalasiga alohi diqqat qaratdi. Uning “Ibrat olmak vaqtি yetmadimu?” sarlavhali maqolasi “...adabiyot daryosidin suv ichmakni orzusida va taraqqiy tog‘ina qadam qo‘ymoqni havasida bo‘lunon Turkistonli birodarlarig‘a bir ozgina izhori fikr qilmoq” niyatida yozilgan. Ilmsiz zinhor taraqqiyiga erishib bo‘lmasligini, “... telegram, tilifun, oyrafilon, g‘iromofun va g‘ayr shunga o‘xhash iliktrichistvo ila bo‘lg‘on nimarsalar... hama ilmu hunar tufaylidin” ekanligini ta’kidlagan Tavallo “Bas, shundog‘ bo‘lodurg‘on bo‘lg‘ondin keyin nima uchun bizlar ilmdan bezormiz, bo‘lak millatlar qancha ilmga rag‘bat etsalar, bizlar hamon qocharmiz?”-degan savolni qo‘yadi.

Bu borada Rusiyadan ibrat olmoq zarurligiga e’tibor qaratadi. Ularning farzandlari maktablarga “...bo‘yunlarig‘a kitoblarin solib, yuzlarinda necha xil shodlik alomati zohir bo‘lub, hamalari birgina tayin soatda bir iydga jo‘nolg‘ondek, ko‘chalarda oqib boradurlar. Bizlar kibi qaysi biri erta bilan va qaysisi peshinda bormaydur”. Bizning bolalarimiz-chi? Ularning ilmga rag‘batlari qay holda? Maktabga qanday boradilar? “Ko‘rasiz, – deb yozadi

adib, – bizlar maktabga jo‘nag‘onda go‘yoki bir azob beradurg‘on yoki hibsga olib ketayotganlardek zo‘r minan va noiloj. Maktabga yaqinlashgan sayin ko‘kragimiz urub, yurak o‘ynab maktab eshigida necha minut turib, kiroyinmu yoki kirmasdin ertaga biror bahona topilmasmu, deb qarob turamiz. Voy, bizlarning o‘tkan umrlarimizga va otalarimizning qilg‘on tarbiyatlarig“a”, – deb afsus chekadi Tavallo.

Yuqoridagi she‘rda esa beibolar, beidroklar maktabga borsa, eldan uyalib yaxshilikka yuz burishini aytadi. Maktabda o‘qisa, shakkoklar tuzalishini umid qiladi. Mana bu satrlarda esa, maktabning har bir shaxs va millat hayotidagi o‘rnii haqidagi fikrlar o‘z ifodasini topgan:

Tiriklikda tushung daryoyi maktabga, oling gavhar,  
Bo‘lur ikki jahonda sizga yo‘l ko‘rsatkich rahbar.  
Kimiki borsa maktab bo‘lmayur deb hyech qachon muztar,  
Hadisda dedi bizga ul Muhammad otli payg‘ambar,  
yetushdi mahsudina necha shayxu shob maktabdan.

Shoir ta‘rificha, maktabga borgan va maktab ko‘rmaganlar o‘rtasida farq katta bo‘ladi. Chunki maktab “hama millatga burhon” bo‘lishi barobarida, “insonlari farq etmaka mezon” hamdir. Bugina emas. Maktab “sarfl qilgan birla tuganmas ganju kon”dir.

Hama millatga har bir burhon maktabdur,  
Chunon insonlari farq etmaka mezon maktabdur,  
Tugonmaz sarf qilg‘on birla ganju kon maktabdur,  
Surushtursang, Tavallo, ya‘ni bir g‘ufron maktabdur.  
Qadam yuqori qo‘ydi sohibi mehrob maktabdan.

Tavallo millatning taraqqiy etishida maktabni qanchalik ta‘riflagan bo‘lsa, matbuotning o‘rnii ham shunchalik baland ekanligini angladi va millatdoshlariga anglatmoq istadi. Shoir she‘rlarida har bir gazeta, jurnal chiqishini muborakbod etdi. Jumladan, ijodkor zamondoshi Ubaydulla Asadullaxo‘jaev muharrirligida chiqqan “Sadoi Turkiston”ni vasf etib, quyidagicha yozadi:

Hamdlar o‘lsun sening nomingga, ey qodir Xudo,  
Qudratingni ko‘rguzubon bir gazet qilding ato.

Rahmating ochding qapusin bir nazar qilding biza,  
Turfat ul-ayn ichra qildi ushbu Turkiston sado.

Kog‘azim – ko‘z pardasi, qonlar siyoh yozsam agar,  
Hasratingga to qiyomat shukrlar o‘lmas ado.

Ko‘p umidi ummatingni, ey habibi muhtaram,  
Iltijo etdim siza doim Muhammad Mustafo.

Ey Vatan! O‘lsun muborak sanga Haqning rahmati,  
Emdi qilgumdur g‘uboringni ko‘zimga to‘tiyo.

Fikrimiz qilsun taraqqiy, ilmimiz topsun rivoj.  
Ko‘z ochilsun, yo‘lni ko‘rsun, ko‘nglumiz tobsin jilo.

Biz jarida tashnasini labzi shirinlar ila,  
Komyob etsa “Sado”miz dunyoda topsin baqo.

Matba'a gulzorida terdi Tavallo ta'rixin,  
Misra'ida sayradi: “Bulbul fig‘on milliy navo”.

Shoir faqat she'rlaridagina emas, publitsistik maqolalarida ham gazeta va jurnallar faoliyatini qo‘llab-quvvatladi. Millatdoshlarini gazeta va jurnallarni o‘qishga, ibrat olishga chaqirdi. Milliy gazeta va jurnallarni chiqarish nechog‘lik zarur ekanligiga alohida e'tibor qaratgan ma'rifatparvar mana bunday yozadi. «Har bir millat jurnal va gazet chiqarmoq o‘lsa, o‘shal millat bolalari jonu dil birla suyunub, quvonib qarshi olurlar; moddiy va ma'naviy yordamda

bo‘linurlar, oyo bizlar emasmu, yangi adabiyotga tashna va gurusna holda umr o‘tkarguvchilar? Ne uchun bizda boshqa millatlar kabi majalla va jarida yo‘q?»-deya iztirob chekadi adib. Uning fikricha, buning sababi ikkita: ishsizlik va ilmsizlik. «Tujjor», «Xurshid», «Taraqqiy», «Turon», «Buxoroi sharif»dek milliy gazetalardin benasib o‘lub, butun dunyodagi millatlar oldinda sharmisor o‘lub xijolatda qolgan»imizni ta‘kidlagan Tavallo «..endi millatning «Oyna»sini birlashub, eng bo‘lmasa, moddiy jihatni tuzulgancha olib bormoq kerak»ligiga e’tibor qaratadi.

Qolaversa, Tavallo ushbu maqolada millat boylariga murojaat etib shunday yozadi: «Boylarimiz ham majalla va gazeta nasihatni va tanqidini tinglab, aziz bolalari uchun qayg‘urub bid’at ishlara qiladurgon behuda sarflarin qo‘yub, millat taraqqiysig‘a cholishmoq»larini orzu qiladi.

“Samarqandda chiqqan “Oyna” majallasi haqinda” deb nomlangan she’rida shoir mazkur jurnalning millatga chin ma’noda ko‘zgu bo‘lganligini, bu ko‘zgu millatning qabohatini ham, malohatini ham, aybu qusurlarini ham, yutuqlarini ham aks ettirishini ta‘klidi. Jumladan she’rda quyidagilarni o‘qiymiz:

Ko‘rguz, yashirma yuzda bo‘lsa g‘ubor, ko‘zgu,  
Har kim umid birlan sanga boqar, ko‘zgu,

Qildi tamom millat jonu dil ila rag‘bat,  
Doim tilar bu niyyat top e’tibor, ko‘zgu.

Shoir jurnalning mahorat topishidan, bid’atni g‘orat etishidan umidvor ekanligini aytadi. Uning arabcha – mir’ot, turkiy tilda – oyna, forsiyda – ko‘zgu, ruscha – zerkalo atalishini aytib, dunyoda ofat ko‘rmasligini, poydor bo‘lishini tilaydi:

Topding bu un mahorat, bid’atni ayla g‘orat,  
Biz aylayik ziiyorat, shayxi kibor ko‘zgu.

Bir ism sanga mir'ot, oyina o'ldi bir ot,  
Dunyoda ko'rma ofot, bo'l poydor, ko'zgu.

Ruslarcha "zerkalo"san, bir getiinamosan,  
Cho'x sohibi jilosan, bo'l poydor, ko'zgu.

Ma'lumki, Mahmudxo'ja Behbudiy asos solgan "Oyna" jurnali 1913 yil 20 avgustidan chiqa boshlagan. Bu suratli haftalik majalla asosan o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilardi. Ziyo Saidning yozishicha: "Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o'qildi".

Tavalloning she'rida ham jurnalning ana shunday katta shuhrat qozonganligi ta'kidlanadi:

Xushxat ediki kotib, kim ko'rdi, oldi sotib,  
O'qur hama yarotib, ey jonnisor, ko'zgu.

Ko'zguni ko'zgu debdur, xurshiddan o'tubdur,  
Har kim qo'la tutubdur, o'zni ko'rар, ko'zgu.

Ko'rmas o'lursa ko'zlar, dunyoda oni izlar,  
Bil sohibi tamizlar ko'zga tutor, ko'zgu.

Ey bizga iydi navro'z, Turon elida yolg'uz,  
Madhinga yo'q erur so'z, jonga mador, ko'zgu.

Shoir "Oyna"ni chin ko'ngildan vASF etadi. Uni har kim qo'liga olsa, o'zini ko'rishi mumkinligidan quvonchini yashirmaydi. Jurnal "sohibi tamiz" – aql egalari ko'zga tutadigan darajada millat hayotida muhim o'rin tutganligini

aytadi. Uning nashr etilishi “iydi navro‘z”ga teng ekanligini ta'kidlaydi. Jurnalning “Turon elida yolg‘uz”, ya'ni tengi yo‘q ekanini, jonga mador darajasida ekanini samimiy e'tirof etadi.

She'rning so‘nggi misralari ham jurnalning millat tarqqiysidagi o‘rniga yuksak baho sifatida jaranglaydi:

Har kimga bofdur bu, o‘qusa savobdur bu,  
Yig‘sа kitobdur bu, bir yodgor ko‘zgu.

Millatga yangi mehmon, yetkundi oni Subhon,  
Bizlarga qildi ehson, Parvardigor, ko‘zgu.

Ko‘zguni ko‘zi shahlo, oydek yuzi mujallo,  
Bir no‘mrasin Tavallo qildi tumor, ko‘zgu.

Shoir fikricha, jurnal har kimga bop va uni har kim o‘qisa savob. Yig‘ib borilsa, benazir bir kitob bo‘ladi. Millatga yangi mehmon bo‘lgan bu jurnal Subhonning – Yaratganning ne'mati. Uni Parvardigor o‘zi millatga ehson o‘laroq hadya etgan. Shu bois uning har bir nomeri millatga tumor bo‘larlidir.

Tavalloning ”Ravnaqul islom” dagi she'rlari eski she'r tizimimiz-aruzda yozilgan. Lekin undagi ruh va mazmun, ko‘rganimizdek yangi. Shoir barmoqqa 20-yillarda, hajviyalarida murojaat qildi va 20 yillar o‘zbek hajviy she'riyatining esda qoladigan namunalarini yaratdi. Biroq sovet davrida yozilgan she'rlarini na g‘oyaviy, na badiiy jihatdan 10-yillardagi she'rlariga qiyoslab bo‘lmaydi. Ular yengil-yelpi yozilgandek, ko‘ngli to‘lib turgan kishining istehzosidek taassurot qoldiradi.

Buning sababi, bizningcha ikkita;

1.Ijtimoiy. Shoir kambag‘alparvarlik shiorlari bilan avom xalqni o‘ziga og‘dirib olgan bolsheviklar siyosatining g‘ayriaxloqiy va g‘ayriinsoniy mohiyatini tobora anglab boradi. Millat va Vatanning tubsiz girdobga ketayotganidan, halokatning muqarrarligidan, najotning yo‘qligidan iztirob

chekadi. Sho‘ro idoralarida, hatto uning huquq-muhofazasida ishlayotganidan qiynaladi. Ko‘nglini borligicha ocha olmaydi.

2.Shaxsiy. Guvoh M.X.Husanboev ma'lumotiga ko‘ra, taxminan 1931 yilda o‘g‘li Mahmud vafot etadi. Bu narsa shoirga qattiq ta'sir qiladi, ichkilikka beriladi. Xullas, Tavallo hayotining so‘nggi 20 yili juda ko‘p zamondoshlariniki kabi iztirobli, lekin deyarli samarasiz kechdi.

Tavallo adabiyotimiz tarixida ko‘proq 10-yillardagi millatni erk va adolatga uyg‘otgan jo‘shqin ehtirosli she'rlari bilan qoldi. Bu she'rlar yangi o‘zbek she'riyatining maydonga kelishida muhim bir bosqich bo‘lib tarixga kirdi. Xususan, Cho‘lpon she'riyatining yuzaga chiqishida ma’naviy omillardan bo‘ldi. Oybekning shoir she'rlarini alohida bir samimiyat bilan esga olishi sababi shunda.

## XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz natijalaridan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Milliy uyg‘onish davri Toshkent adabiy muhitining yetuk namoyandasini To‘lagan Xo‘jamyorov Tavallo she’riyatida XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy voqeligi o‘ziga xos badiiy talqin etildi. Bu hol shoirning Vatan mavzuidagi, millat va milliyat masalalari yoritilgan, Yevropa va Turkiston qiyosiga doir qarashlar aks etgan, millat tanazzuli sabablariga oid she’rlarida, ayniqsa, yaqqolroq ifodalandi.

2. Tavallo she’rlarining mavzu qamrovi keng. Ularni mavzu jihatdan quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin: 1) Vatanga muhabbat va uning taqdiriga kuyinish ruhidagi; 2) millat va milliyat mavzuidagi; 3) ma’rifatparvarlik; 4) millat ijtimoiy hayotidagi qoloqlikdan kuyinish; 5) ijtimoiy hayotdagi yangiliklarga munosabat; 6) taraqqiyparvar Yevropadan o‘rnak olish mavzuidagi.

3. Shoirning Vatan mavzuidagi she’rlarida ona yurt tarixiga murojaat ruhi yetakchilik qiladi. U Vatanini Turkiston, Turon, Mavarounnahr kabi nomlar bilan ataydi. Vatan muhabbatini har narsadan ustun qo‘yadi. Shoirning bu mavzudagi she’rlarida tuyg‘u jo‘shqin, ifoda ta’sirchan, badiiyat mukammal ekanligini ta’kidlash kerak. Ijodkor she’rlarida Vatan va uning sarhadlari bizning badanimiz kabi tanu jonimizga tutash ekanligi, Vatanga daxl tanga va jonga ham daxl etmoq ekanligi, Vatan o‘lik jism emas, jonli tan va u ushbu tuproqda yashovchi har bir vatandosh tanu joniga payvasta bo‘lmog‘i lozimligi betakror badiiy etilgan.

4. Millat va milliyat masalalari barcha zamonlarda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Lekin XX asr boshlarida jadidlarimiz bu masalani hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga qo‘ydi. O‘tmishda din birligining timsoli hisoblangan “millat” tushunchasini aynan jadidlar til birligiga tayanuvchi etnik atama sifatida qo‘lladilar. “Milliyat” – milliylik, millatning o‘zligi, qadriyatları,

butun borlig‘i demakdir. Tavallo o‘zining she’riy va publitsistik asarlarida millat va milliyat masalalarini ko‘tarib chiqish orqali millatni o‘zligini anglashga, ma’rifatga da’vat etdi.

5. “Millat”, “Milliyat” tushunchalariga Avloniy va Tavallolarga qadar she’riyatimizda bunchalik ko‘p e’tibor berilgan emas edi. Tavalloda ijodida har bir she’r millat, uning shu kundagi ahvoli, jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnii, tarixi va taqdiriga kelib bog‘lanadi.

6. Tavallo she’riyatida taraqqiyotning baland darajasiga erishgan Yevropa va tanazzul iskanjasida qolgan Turkiston qiyosiga yuksak umuminsoniy mezonlar asosida yondashilgan. Bu mavzuda masalaning tub mohiyatidan, ildizidan kelib chiqib fikr yuritilgan, Vatan va millat manfaati nuqtai nazaridan baholangan. Mutafakkir jadidlarning bu boradagi qarashlar silsilasida To‘lagan Xo‘jamyorov Tavallo nuqtai nazari teranligi, keng qamrovli ekanligi jihatidan alohida ajralib turadi.

7. Tavallo jahoning, chunonchi Ovrupo va Amerika xalqlarining taraqqiyot asridagi hayotiga nazar tashlaydi. Bir tomonda ilm-fan, texnika yangiliklarini turmushga joriy etib, og‘irini yengil, hayotini farovon qilayotgan millatlar, ikkinchi tomonda, Odam Atodan kelayotgan, allaqachon eskirib ishdan chiqqan ishlab chiqarish usuli va vositalariga mahkam yopishib, dunyoda shuni so‘nggi mo‘jizadek ushlab olgan Turkiston. Shoir har ikkisini muqoyasa qiladi, millatga xitob qilib, uni jaholat uyquaidan uyg‘onishga chaqiradi, taraqqiyiga undaydi.

8. Shoir she’riyatida davr yangiliklari, Turkiston ijtimoiy-siyosiy voqeligi butun ziddiyatlari, murakkabliklari bilan talqin etilgan. “Oyna” jurnalining, “Sadoyi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” gazetalarining chiqishi, Ismoilbek Gasprinskiy vafoti, Qarsdagi zilzila, ayniqsa, millatning tanazzuliga sabab bo‘lgan holatlar Tavalloning diqqat markazida bo‘lgan. O‘zbek teatrining maydonga kelish voqealari, maktab-maorif masalalari shoir she’rlarida yuksak badiiy mahorat bilan talqin etilgan.

9. Tavallo boshqa jadid shoirlari singari, nafaqat Rossiya, balki Yevropa xalqlari hayotidan, shu mamlakatlardagi ilmiy va madaniy hayot yangiliklaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. Shuning uchun ham u Turkiston xalqining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy qoloqlikda yashayotgani bilan aslo murosa qila olmadi. Qalbida mavjud achinarli holga nisbatan isyon alangalari gurlagan shoir xalq ko‘ziga ko‘zgu tutib, bu ko‘zguda elu yurt turmushining ba’zi bir mudhish lavhalarini aks ettirishga katta e’tibor berdi.

10. Umuman, Tavallo XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir she’rlarida ona yurtining inqiroz girdobida qolganidan armon va o‘kinchlarini, alam va iztiroblarini ifodalash barobarida uning yorug‘ istiqboli, Vatan va millatning ozod va obod bo‘lishi, taraqqiy etgan Yevropa darajasida rivojlanishga erishishi bilan bog‘liq orzu-ideallarini ham betakror ifodaladi. Bu borada miliy uyg‘onish davri o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos yangicha talqinlarga asos soldi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. MANBALAR:**

- 1.1. Тавалло. Равнақ ул-ислом (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Б.Қосимов). - Т.: “Фан” нашриёти, 1993.
- 1.2. Ўзбек миллий уйғониш адабиётига материаллар. (Нашрга тайёрловчилар: Б.Қосимов, У.Долимов, Н.Жабборов). Тошкент, “Университет”, 2004.
- 1.3. Тавалло. Миллата жонлар фидо. - Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2013

### **II. ILMIY ADABIYOTLAR:**

- 2.1. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2 жилд. - Т.: “Маънавият”, 1998.
- 2.2. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Т.: Fafur Fулом номидаги НМИУ, 2009.
- 2.3. Жабборов Н. “Миллата жонлар фидо...”. //Моҳият, 2004 йил 7 май.
- 2.4. Жабборов Н. Маърифат надир. - Т.: “Маънавият”, 2010.
- 2.5. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. - Т.: “Фан”, 2006.
- 2.6. Каримов Б. Руҳият алифбоси. - Т.: Fafur Fулом номидаги НМИУ, 2016.
- 2.7. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: “Ўзбекистон”, 1997
- 2.8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. - Т.: “Шарқ”, 2009.
- 2.9. Каримов Н. Тавалло ҳақида сўз. - Тавалло. Миллата жонлар фидо. - Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2013

- 2.10. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётидан дастур (Тузувчилар: Б. Қосимов, Ш.Юсупов ва б.). - Т., 1996Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. Тошкент, “Шарқ” НМАК, 2004.
- 2.11. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. Тошкент, “Шарқ” НМАК, 2004.
- 2.12. Шарафиддинов О. Довоңдаги ўйлар. Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2004.
- 2.13. Qosimov B. O’zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. Tohskent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
- 2.14. Қосимов Б. Излай-излай топганим. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1983; шу муаллиф. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: “Маънавият”, 2002.
- 2.15. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2002.
- 2.16. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ахмедов С., Ризаев Ш. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юртлари филология факультетлари учун дарслик. Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2004.
- 2.17. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Т.: “Маънавият”, 2011.